Tadqiqot ob'ekti va usullari. Tadqiqotlar olib borishda quyidagi moddalardan foydalanildi: monoetanolamin (GOST 2768-84, Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqarilgan) asosiy modda miqdori – 99,3%, zichligi 1,012 g/sm³, sirka aldegid (GOST (T.U.) 2633-51) asosiy modda miqdori- 99%, qaynash harorati 20-22 °C . Sintezlar quyidagicha olib borildi: inert muxitda, xarorat 15°C dan oshmagan xolda to'rt og'izli kolbadagi sirka aldegidga ajratuvchi voronka yordamida monoetanolamin asta sekinlik bilan tomizildi. Reaksiya natijasida to'q olcha rang maxsulot xosil bo'ldi. Monoetanolamin tomchilatish tugaganidan so'ng (odatda 4-5 soat davomida) sistema xaroratini 30°C ga ko'tarib 30 daqiqa aralashtirildi. So'ngra sistema xaroratini yana 50 °C ga ko'tarilib 30 daqiqa aralashtirildi. Olingan moddamizdan maqsadli mahsulotni ajratib olish uchun vakuumda xaydaldi. Xaydash jarayonida dastlab suvni ajratib olish uchun suv xammomidan foydalandik, -1 MPa bosimda 40°C suv ajralishni boshladi. Suv va boshqa moddalarni ajratib olish uchun xaydash 70°C gacha olib borildi. Keyin maqsadli mahsulotni ajratib olish uchun suv xammomini olib tashlab -1 MPa bosimda 110°C to'k apelsin rangli maqsadli maxsulot ajralib chiqdi. Xosil bo'lgan maqsadli maxsulotimizning fizik –kimyoviy xossalari quyidagi metodikalar bo'yicha aniqlandi: gidroksil guruxlarning miqdori – GOST 25261-82, amin guruxlar massa ulushi [12], IQ spektrlarini "IRAffinity-1" IQ spektrida olindi.

Olingan natijalarni muhokamasi.

Monoetanolamin va sirka aldegid reaksiyasidan hosil bo'lgan mahsulotlar tarkibi, tuzilishini o'rganish maqsadida turli nisbatlarda sintez qilingan maqsadli mahsulotlarning xossalari o'rganildi (1-jadval).


1-jadval

Turli nisbatlarda olingan maqsadli mahsulotlarning fizik kimyoviy xossalari

MEA : SA (mol:mol)	Azotning massa ulushi (%)	Gidroksil guruxlarning miqdori, mgKOH/g	Molekulyar massa (MM)	Nur sindirish ko'rsatkichi,
1:0,5	16,3	417,78	94,75	1,482
1:1	12,8	337,65	163,3	1,504
1:2	7,0	246,23	260,7	1,439

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, sirka aldegidining monoetanolaminga nisbatan mol nisbatining ortishi bilan yakuniy mahsulot tarkibidagi azot massa ulushi (%) va gidroksil guruxlar miqdorini kamayganligi, molekulyar massani(MM)[30] ortganligi aniqlandi.

Maqsadli mahsulotlarini hosil bo'lishiga yanada aniqlik kiritish maqsadida olingan namunalarning IQ spektroskopik analiz yordamida tadqiq qilishga bag'ishladik.(1-rasm)



1-rasm. Monoetanolamin va sirka aldegidi reaksiyasidan hosil bo'lgan mahsulot IQ spektri (MEA:SA=1:1 mol/mol nisbatida)

Maxsulotimizni infraqizil spektr yordamida tahlil qilganimizda quyidagi natijalarni oldik: bog'langan valent OH – 3356,1076,1029, 947 sm^{-1} , bog'langan valent –NH – 3288, 1357 sm^{-1} , metin,metil, metilen guruxlari mos ravishda 2945 va 867, 2873 va 1446, 2843 sm^{-1} , azometin guruxi – 1597 sm^{-1} , -C – N – guruxi – 1357 sm^{-1} , birlamchi va ikkilamchi –OH – 1076 va 1029,947 sm^{-1} .Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra sintez qilingan moddamiz chiziqli tuzilishga ega, tarkibida uchlamchi azot azometin holidi(1597 sm^{-1}), hamda gidroksil guruxlari bor aminospirtidir.

Xulosa. Bu ishimizda biz monoetanolamin va sirka aldegidi reaksiyasini boshqa azometin hosil qilish reaksiyalaridan farqli ravishda hech qanday tashqi omillarsiz, katalizator va boshqa qo'shimchalar qo'shmasdan olib borishga qaratdik. Sirka aldegidining monoetanolaminga nisbatan mol nisbatining ortishi yakuniy mahsulot tarkibidagi azot massa ulushi, gidroksil guruxlar miqdorini va molekulyar massalarni(MM) o'zgarishiga olib kelishini aniqladik. Yakuniy mahsulotimiz tarkibida azometin gurux borligini IQ spektroskopiya usuli yordamida tasdiqladik.

ADABIYOTLAR:

1. Schiff H. "Untersuchungen Uber salicin derivate." European Journal of Organic Chemistry. 1869;150:193-200
2. A. V. Shanbhag, T. V. Venkatesha, R. A. Prabhu, J Appl Electrochem 38, 279, (2008)
3. "Covalent Triazine-Based Frameworks with Ultramicropores and High Nitrogen Contents for Highly Selective CO2 Capture." Wang K, Huang H, Liu D, Wang C, Li J, Zhong C. Environ Sci Technol. 2016 May 3;50(9):4869-76. doi: 10.1021/acs.est.6b00425. Epub 2016 Apr 22. PMID: 27081869
4. R. W. Layer, Chem. Rev. 1963, 63, 489 – 510
5. "Green synthesis of Azomethines in natural solvents". Gayatri Phadnaik. Research Journal of Chemical Sciences. Research Journal of Chemical Sciences. Vol. 10(3), 44-47, October (2020) Res. J. Chem. Sci.10(3)
6. "The inhibition of steel corrosion in acidic solutions by a new schiff base". N. K. Bakirhan, A. Asan, N. Colak, S. Sanli. J. Chil. Chem. Soc., 61, N° 3 (2016)
7. A. J. Bailey, B. R. James, J. Chem. Soc. Chem. Commun. 1996, 2343 – 2344
8. B. Zhu, R. J. Angelici, Chem. Commun. 2007, 2157 – 2159.
9. S. Minakata, Y. Ohshima, A. Takemiya, I. Ryu, M. Komatsu, Y. Ohshiro, Chem. Lett. 1997, 311 – 312.
10. X. Lang, W. Ma, Y. Zhao, C. Chen, H. Ji, J. Zhao, Chem. Eur. J. 2012, 18, 2624 – 2631.
11. S. Naya, J. Nishimura, M. Nitta, J. Org. Chem. 2005, 70, 9780 –9788.
12. Торопцева .А.М., Белегородская .К.В., Бондоренко. В.М. . "Лабораторный практикум по химии и технологии высокомолекулярных соединений" Ленинград издательство "Химия" Ленинградское отделение. 1972 г. ст 123.

Kalit so'zlar: Sirka aldegidi, monoetanolamin, azometin, Shiff asoslari, iminlar.

Ushbu tadqiqotda monoetanolamin(MEA)ni sirka aldegidi(SA) bilan katalizatorlarsiz va boshqa qo'shimchalarsiz to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ettirish jarayonlari o'rganildi. Tadqiqot natijasida sirka aldegidining

monoetanolaminga nisbatan moll nisbatining ortishi yakuniy mahsulot tarkibidagi azot massa ulushi (%) va gidroksil soni(mgKOH/g) kamayishini, molekulyar massani(MM) ortganligi aniqlandi. Olingan na'munalarimizni IQ spektrlari yordamida o'rganildi.

Ключевые слова: Ацетальдегид, моноэтаноламин, азометины, основы Шиффа, имины.

В данном исследовании было изучено взаимодействие моноэтанолamina (МЭА) с ацетальдегидом (АцА) в отсутствии катализатора и других добавок. В результате исследования было показано, что с увеличением количества АцА, взятого для синтеза, в составе конечного продукта происходит снижение содержания азота гидроксильных групп. Было также выявлено увеличение молекулярной массы (ММ). Полученные образцы были проанализированы с помощью ИК спектроскопии.

Keywords: Acetaldehyde, monoethanolamine, azomethine, Schiff bases, imines.

In this study, the direct interaction between monoethanolamine (MEA) and acetaldehyde (SA) without catalysts and other additives was investigated. The results of the study revealed a decrease in the nitrogen mass fraction (%) and the number of hydroxyl groups (mg KOH/g) in the final product composition relative to the acetaldehyde-to-monoethanolamine molar ratio. Additionally, the increase in molecular mass (MM) was determined. The obtained samples were analyzed using IR and NMR spectroscopy.

Mirodil Janayev
Ravshan Adilov
Muzafar Alimuxamedov

Namangan Muhandislik Texnologiya Instituti
Toshkent kimyo- texnologiya instituti. Toshkent, O'zbekiston
Toshkent kimyo- texnologiya instituti. Toshkent, O'zbekiston

UDK 678.02.678.6

FENOLOSPIRT VA DIETILENGLIKOLADIPINATOL (60:1 mol/mol) NISBATIDA SOOLIGOMERLARI HOSIL BO'LISHINING TADQIQI

M.I. Toxirov, M.G. Alimuxamedov

Kirish. Hozirgi vaqtda fenol-formaldegid oligomerlarining kimyosi va texnologiyasi tez sur'atlar bilan rivojlanishda davom etmoqda - ishlab chiqarishning yangi usullari, boshlang'ich moddalar turlari va oligomerlarning o'zlari, ularni o'zgartirish yo'llari taklif qilinmoqda, yangi yuqori texnologiyali qo'llash sohalari ishlab chiqilmoqda [1]. Bu omilni fenol-formaldegid bog'lovchilarga xos bo'lgan qator afzalliklar bilan izohlash mumkin, ular orasida quyidagilarni ta'kidlash lozim: yuqori fizik-mexanik xossalari, mustahkamligi, issiqlik va haroratga chidamlilik, issiqlik barqarorlik: olov-tutun-toksiklik xususiyatlari - yonmaydigan, past tutun emissiyasi va past toksiklik, agressiv muhitga, kimyoviy moddalarga va radiatsiyaga qarshilik, yuqori dielektrik xususiyatlar, xom ashyoning arzonligi. Shu bilan birga, fenol-formaldegid bog'lovchilar asosida tayyorlangan materiallar ham xarakterli kamchiliklarga ega, ularning eng muhimi mo'rtlik va g'ovaklikdir [2].

Yuqoridagi tadqiqotlarga misol qilib, odatdagi fenol-formaldegid oligomerni sintez qilishda foydalaniladigan monomer bo'lgan fenolni 10%, 20%, 30%, 40% va 50% gacha kardanol bilan almashtirib, spirtida eruvchan fenol-kardanol-formaldegid oligomerini sintez qilingan. Sintez qilib olingan bog'lovchining molekulyar og'irlik taqsimoti LC-10Avp SHIMADZU

suyuqlik xromatografida gel o'tkazuvchanlik xromatografiyasi yordamida o'rganilgan. Uning natijalariga ko'ra molekulyar massasi (Mn) kardanolning massa ulushi oshib borishi bilan 444 dan 1001 g/mol ga o'zgargan. Tarkibida 20 va 30% kardanol bo'lgan oligomerlarning yaroqlilik muddati kardanol bo'lmagan qatronlarga qaraganda 2,5 baravar oshgan. Bu esa o'z navbatida sintez qilingan oligomerning saqlash muttadi uzayishiga olib kelgan.[3]

Yuqoridagi ishga yaqinroq bizning tadqiqotlarimizda yuqori molekulyar massali fenol-formaldegid oligomerlarini sintez qilish, molekulyar massa taqsimotini yanada oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borildi. [4-5]

Tadqiqot ob'yekti va uslublari. Ilmiy tadqiqot olib borishda quyidagi moddalardan foydalanildi: Fenol (ЧДА) (TU 6-09-40-3245-90), formalin (XЧ) (GOST 1625-2016), adipin kislota (XЧ) (GOST 10558-80), dietilenglikol (XЧ) (GOST 10136-77), malein angidrid (XЧ) (GOST 11153-75). Foydalanishdan oldin fenol vakuumda, 100-110 °C da haydab olindi. Bunda haydab olingan fenolning nur sindirish ko'rsatgichi $n_D^{20}=1.54027$ ni tashkil qildi. Formaldegidning suvdagi 37 % li eritmasidan (formalin) foydalanildi. Dietilenglikol vakuumda (0,90-0,97 kgs/sm²), 133-145 °C haroratda haydab olindi.

Xaydab olingan dietilenglikolning nur sindirish ko'rsatgichi $n_D^{20}=1.4474$ ni tashkil qildi.

Sintez jarayonlari quydagicha olib borildi, molekulyar og'irligi va funksionalligi ma'lum bo'lgan gidroksil guruhini o'z ichiga olgan polieifer poliollarni sintez qilish sharoitlari o'rganildi. Shulardan Adipin kislota va alifatik glikollarning (Dietilen glikol (DEG), Etilen glikol (EG), Butandiol (BD)) turli nisbatlarida polikondensatsiyalanish sharoitlari o'rganildi. O'rganilgan polikondensatsiyalanish reaksiyalaridan adipin kislota va dietilen glikolning 1:1,1 mol/mol nisbatidagi dietilenglikoladipinatol (gidroksil saqllovchi poliefirpoliol) tanlab olindi. Bu sintez jarayoni 6 soat davomida inert muhitda 195°C da olib borildi.

Fenol va formaldegid 1:1,5 mol/mol nisbatida 16 soat davomida pH=9 ishqoriy muhitda 56-60°C haroratda fenolospirt (FS) sintez qilib olindi. Sintez qilib olingan ikkita monomerlarimiz, dietilenglikoladipinatol va fenolospirtning 1:60 mol/mol nisbatida sopolikondensatsiyalanish jarayoni Malein angidrid katalizatori ishtirokida kislotali muhitda olib borildi.


Sintez qilib olingan sooligomerlarimizni fizik-kimyoviy xossalari quydagi metodlar yordamida o'rganildi: brom soni (gBr/100g), muhitning pH ko'rsatgichi, gidroksil guruhlar miqdori (%), o'rtacha son molekulyar massa, o'rtacha vazniy molekulyar massa, ajralib chiqan suv miqdori [8] va sintez qilingan monomerlar, sooligomerlarning IQ – spektrlari "IR Tracer-100" (SHIMADZU CORP., Yaponiya, 2017) spektrometrida tahlil qilindi.

Natijalar va ularning taxlili. Fenolospirt va dietilenglikoladipinatol (60:1 mol/mol) nisbatida sintez qilib olingan sooligomerlarni, sintez

davomiyligining yakuniy mahsulotlarning xossalari ta'siri o'rganildi. Bu jarayonda sintez jarayoning davomiyligi 10, 20, 40, 60, 80 daqiqalarni tashkil etgan. Olingan natijalar 1-rasmda ko'rsatilgan.

1 – rasmdagi natijalarni muhokama qiladigan bo'lsak, birinchi grafik brom sonini va uchunchi grafikda gidroksil guruh miqdorini aks etirgan. Bunda sintez davomiyligi 10 daqiqadan 80 daqiqaga oshib borishi bilan brom soni (191 gBr/100g, 186 gBr/100g, 169 gBr/100g, 146 gBr/100g, 115 gBr/100g) va gidroksil guruh miqdori (9,97, 9,90, 9,70, 9,45, 9,12%) kamayib boryotgani kuzatishimiz mumkin. Bundan shuni xulosa qilish mumkin, hosil bo'layotgan sooligomerizning asosiy makromolekulasidagi qo'sh bog' va gidroksil guruhlar miqdori sintez vaqti ortishi bilan kamayib molekulyar massasi ortmoqda.


Keyingi ikkinchi grafikda sintez jarayonida, muhitning pH ko'rsatgichi tahlil qilindi. Bunda sintez 10, 20, 40, 60 va 80 daqiqa davom etirildi. Sintez yakunida pH ko'rsatgich tegishli ravishda 3,2; 3,27; 3,49; 3,81; 4,3 ga ortib boryotgani kuzatishimiz mumkin. To'rtinchi va beshinchi grafiklar o'rtacha son molekulyar massa va o'rtacha vazniy molekulyar massalar aks etgan. Ular ham sintez davomiyligi 10 daqiqadan 80 daqiqaga ortib borishi bilan molekulyar massalar 2552 – 2448 g/mol dan 6985 – 6755 g/molga ortib boryotgani to'rtinchi va beshinchi egri chiziqlarda kuzatishimiz mumkin bo'ladi. So'ngi oltinchi grafik esa sopolikondensatsiya jarayonida hosil bo'layotgan suvning mol miqdori bo'lib, jarayonning davomiyligi 10 dan 80 daqiqaga ortib borishi bilan hosil bo'layotgan suv miqdori 1,65 moldan 4,15 molga ortib bormoqda.



1-rasm. Fenolospirt va dietilenglikoladipinatol (60:1 mol/mol) nisbatda sooligomerlari hosil bo'lishiga reaksiya davomiyligining ta'siri

1-Brom soni gBr/100g; 2-muhitning pH ko'rsatgichi; 3- Gidroksil guruhlar miqdori,%; 4- O'rtacha son molekulyar massa; 5- O'rtacha vazniy molekulyar massa; 6- Ajralib chiqan suv miqdori, mol;

Yuqoridagi tastiqqlarimizni yanada aniqroq isbotlash uchun monomerlar fenolospirt, dietilenglikoladipinatol va hosil bo'lgan



2-rasm. Fenolospirt va dietilenglikoladipinatol (60:1 mol/mol) nisbatida sooligomerlarining IQ spektrlari
1-Dietilenglikoladipinatol; 2-Fenolospirt; 3-Sintez davomiyligi 80 daqiqadagi sooligomer; 4- Sintez davomiyligi 40 daqiqadagi sooligomer; 5- Sintez davomiyligi 20 daqiqadagi sooligomer;

1,2,3,4 va 5 spektrlarda mos ravishda 3381 sm^{-1} , 3377 sm^{-1} , 3383 sm^{-1} , 3371 sm^{-1} va 3369 sm^{-1} mintaqalarda keng yutilish zonasiga ega bo'lgan

sooligomerlarning IQ – spektri o'rganildi. Natijalarni 2 – rasmda kuzatishimiz mumkin.

atsosirlangan gidroksil guruhlar ko'rsatilgan. 1 va 2 monomerlarning spektrlarida 2974-2877 sm^{-1} va 2983-2883 sm^{-1} oralig'idagi cho'qilar dietilenglikoladipinatol va fenolospirtidagi –CH– guruhining simmetrik va assimetrik cho'zilishi tufayli yutilishni ifodalaydi. 4 va 5 spektrlardagi 2981-2891 sm^{-1} , 2980-2885 sm^{-1} hududlar –CH– guruhlarining past yutilish zonasini ko'rsatadi. Sintez davomiyligi 80 daqiqagacha yetkazilgan sooligomer (3 spektr)da monomer va sintez vaqti kamroq bo'lgan sooligomerlarda mavjud bo'lgan –CH– guruh yo'qolib ketgani ko'rishimiz mumkin. Bu yerda molekulyar massa oshgan sayin oligomerlardagi metil guruh past yutilishga o'tyotganini ko'rish mumkin. 2,3,4 va 5 spektrlardagi 1712 dan 1695 sm^{-1} yutilish cho'qilari C6H5–CHO guruhlar mavjudligini, 1620-1480 sm^{-1} oralig'idagi cho'qilar aromatik halqadagi –C=C– cho'zilishi bilan bog'liqligini ko'rish mumkin. Bu esa haqiqatdan ham molekulyar massa oshishida aromatik halqalarni qatnashyotgani bildiradi.

Xulosa. Yuqoridagi tadqiqotimizda fenolospirt va dietilenglikoladipinatol asosida turli vaqt davomida sooligomerlar sintez qilindi. Sintez qilingan sooligomerlarimizni fizik-kimyoviy usullar yordamida tahlil qilganimizda, oddiy fenol formaldegid oligomerlariga qaraganda modifikatsiyalash bir necha 10 marta molekulyar massasi oshgani isbot qilindi.

ADABIYOTLAR:

1. Pilato. L. Phenolic resins: A century of progress. Springer, 2010. 545 p.
2. Ткачук А.И., Донецкий К.И., Терехов И.В., Караваев Р.Ю. Применение терморективных связующих для изготовления полимерных композиционных материалов методами безавтоклавного формования // 2021. № 1 (62). Ст. 03. DOI: 10.18577/2713-0193-2021-0-1-22-23.
3. Трошин Д. П., Шишлов О. Ф., Баулина Н. С., Глухих В. В., Стоянов О.В. Влияние содержания карданола в спирторастворимых фенолкарданолформальдегидных смолах на изменение их свойств при хранении // Вестн. Казан. технол. ун-та. - 2013. - 16, № 17. - С. 101-103.
4. Magrupov F.A., Umarov Sh.A., Tohirov M.I., Radjabova Z.F. (2020) "The research of conditions for the formation of phenol formaldehyde resins modified with hydroxyl containing polyether polyol" Chemistry and chemical engineering, Vol. 18, Article 11.
5. Tohirov M. I., Jumanov L.E., Sayitov B. U., Alimukhamedov M.G., Jurayev A.B. "Physico-chemical properties of hydroxyl-containing complex polyesterpoliols" Scientific Bulletin of NamSU – 2022, number – 1, p.p. - 135-139.

Kalit so'zlar: Fenol, formaldegid, adipin kislota, dietilen glikol, fenolospirt, dietilenglikoladipinatol, o'rtacha son molekulyar massa, o'rtacha vazniy molekulyar massa, IQ sepekr.

Ushbu tadqiqotda fenol va formaldegiddan fenolospirt, adipin kislota va dietilenglikoldan dietilenglikoladipinatol sintez qilindi. Sintez qilingan fenolospirt va dietilenglikoladipinatollarning (60:1) mol/mol nisbatida sooligomerlar sintez qilindi. Sintez qilingan sooligomerlarning: brom soni gBr/100g, muhitning pH ko'rsatgichi, gidroksil guruhlar miqdori, o'rtacha son molekulyar massa, o'rtacha vazniy molekulyar massa av ajralib chiqan suv miqdori aniqlandi. Sintez qilingan monomerlar, sooligomerlarning IQ – spektrlari bir-biri bilan solishtirib tahlil qilindi. O'rtacha molekulyar massa ortgani isbotlandi.

Ключевые слова: Фенол, формальдегид, адипиновая кислота, диэтиленгликоль, фенолоспирт, диэтиленгликоладипинатол, среднечисловая молекулярная масса, средневесовая молекулярная масса, ИК-спектр.

В данной работе из фенола и формальдегида синтезированы фенолоспирт, адипиновой кислоты и диэтиленгликоля диэтиленгликоладипинатол. Соолигомеры синтезировали при молярном соотношении фенолоспирта и диэтиленгликоладипинатола 60:1. У синтезированных соолигомеров определяли: бромное число, гBr/100г, pH среды, содержание гидроксильных групп, среднечисленную молекулярную массу, средневесовую молекулярную массу и количество выделившейся воды. ИК-спектроскопией изучены строение синтезированных соолигомеров и по их результатом высказано предположение. Было показано, что происходит рост средней молекулярной массы о направлении реакции.

Keywords: Phenol, formaldehyde, adipic acid, diethylene glycol, phenol alcohol, diethyleneglycoladipinanol, number average molecular mass, weight average molecular mass, IR spectrum.

In this work, phenol alcohol, adipic acid and diethylene glycol diethylene glycol adipinanol were synthesized from phenol and formaldehyde. Cooligomers were synthesized at a molar ratio of phenol alcohol and diethylene glycol adipinanol of 60:1. The following values were determined for the synthesized co-oligomers: bromine number, gBr/100g, pH of the medium, content of hydroxyl groups, number-average molecular weight, weight-average molecular weight and the amount of released water. The structure of the synthesized co-oligomers was studied by IR spectroscopy and a hypothesis was made based on their results. It was shown that there is an increase in the average molecular weight in the direction of the reaction.

Toxirov Murodjon Ixtiyor o'g'li
Alimuxamedov Muzafar Ganiyevich

-Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Toshkent, O'zbekiston
-Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Toshkent, O'zbekiston

УДК 691.57

BUTILAKRILAT VA STIROL MONOMERLARINI SOPOLIMERLANISHIDAN OLINGAN SOPOLIMERNI TERMIK TAVSIFI VA IQ – SPEKTROSKOPIYA TAHLILI

F.S. Xolmirzayev, A.T. Tillayev, F.N. Nurqulov, A.T. Djililov

Kirish. Hozirgi vaqtda ishlatiladigan yo'l bo'yoqlari ortiqcha to'ldirilgan kompozit materiallar, shuning uchun polimer matritsa materialining sifati kerakli xizmat muddatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. So'nggi paytlarda yo'l bo'yoqlari ishlab chiqarishda bog'lovchi sifatida akril yoki metakril kislotaga asoslangan termoplastik akril sopolimerlari ishlatilgan. Biroq, bunday sopolimerlar turli maqsadlar uchun kompozitsiyalarni ishlab chiqish uchun ishlab chiqariladi, ya'ni universaldir.

Ishning maqsadi laq-bo'yoq sanoatida ishlatiladigan sopolimerning xususiyatlari bo'yicha, ular asosidagi olingan qoplamalarning xususiyatlari bo'yicha ham sanoatda ishlab chiqarilganlarga o'xshash akril sopolimerini olish, kimyoviy qo'llash jarayonini o'rganish, shuningdek sintezlangan sopolimerlar asosida yo'l belgilari bo'yog'ini ishlab chiqish.

Butilakrilat bilan stirol sopolimerlanish yo'li bilan akril monomer asosida sintezlangan akril sopolimerlari, ular asosidagi qoplamalar fizik-mexanik xossalari sanoat namunalariga o'xshash va abraziv ishqalanishga bardoshliligi bo'yicha ulardan ustundir.

Abraziv ishqalanishga bardoshliligini oshiruvchi yo'l-belgilash bo'yoqlari ishlab chiqilgan

Bo'yoq qoplamalari uchta asosiy funksiyani bajaradi: dekorativ, himoya va maxsus. Fan va ishlab chiqarish rivojlanishi bilan ikkinchi va uchinchi funksiyalarning o'ziga xos ahamiyati tobora ortib bormoqda [1, 4-bet].

Belgilash bo'yoqlari va emallari sovuq usulda qo'llaniladigan markalash materiallaridir. Belgilash bo'yoqlari gorizontal va vertikal belgilarni bajarish uchun ishlatiladi. Markalash bo'yoqlari va emallarini qo'llash to'liq mexanizatsiyalashgan. Belgilash materialni purkashning pnevmatik yoki havosiz usuli yordamida amalga oshiriladi. Gorizontal belgilar bilan suyuqlik qatlamining qalinligi 400-600 mikronni tashkil qiladi. Ma'lumki, yo'llarning qatnov qismini belgilash uchun ishlatiladigan materiallar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak: yo'l sirtiga yuqori yopishish, yuqori ishqalanishga bardoshlilik va qo'llanilgandan keyin tezda shakllanish qobiliyati [2, 23-bet].

Zamonaviy markalash bo'yoqlari va emallari pylonka hosil qiluvchi, pigment, mineral plomba moddalari, funksional va texnologik

qo'shimchalardan iborat yuqori to'ldirilgan kompozitsiyalardir. Uchuvchi bo'lmagan moddalar miqdori 70-75% ni tashkil qiladi. Titan dioksidi pigment sifatida ishlatiladi.

Akril oligomerlar bog'lovchilarning eng istiqbolli sinflaridan biridir, chunki ular yaxshi ishlash xususiyatlariga ega bo'lgan qoplamalar hosil qiladi. Akril qoplamalarning yuqori ob-havoga chidamliligi va chidamliligi ta'mirlash bo'yoqlari sonini kamaytirish va bo'yoq va lak qoplamalarining xizmat qilish muddatini mahsulotlarning xizmat qilish muddatiga yaqinlashtirish imkonini beradi. Kimyoviy qarshilik, optik shaffoflik, yuqori mexanik xususiyatlar va dekorativ effekt turli sohalarda yangi akril bo'yoq va laklardan foydalanish imkonini beradi [3].

Amalda polimerlanish ko'pincha maxsus qo'shilgan moddalar - inisiatorlar ishtirokida amalga oshiriladi, ular polimerizatsiya sharoitida erkin radikallarga oson parchalanadi (ko'p hollarda zaif kimyoviy bog'lanishlarning termal gomolitik bo'linishi tufayli). Tashabbuskorlar orasida eng keng tarqalgan peroksid birikmalari (vodorod peroksid, benzoil peroksid, butil va izopropil benzoil gidroperoksidlari, uchinchi darajali butil peroksid, persulfatlar va boshqalar). Amalda qo'llaniladigan ko'pchilik inisiatorlar uchun gomolitik parchalanishning faollanish energiyasi uzilgan bog'lanish energiyasiga yaqin va 125,6 - 146,5 kJ/mol (30-35 kkal/mol) oralig'ida bo'ladi. C-14 bog'ining mustahkamligi yetarlicha yuqori bo'lgan azo birikmalarda (293 kJ/mol yoki 70 kkal/mol), parchalanishi oson bo'lgan azot molekulalarining yuqori barqarorligi bilan bog'liq [4].

Metodologiya. Erituvchi muhitida sopolimer sintezi. Butilakrilat va stirol monomerlarini sopolimerlanish jarayoni 30:70 boshlang'ich moddalarning molyar nisbatlarida 70-80° C haroratda amalga oshirildi. Erituvchi sifatida R-646 umumiy massani 50:50 nisbatida qo'shildi, reaksiya davomiyligi 6 soat. Butilakrilat va stirol monomerlari va R-646 erituvchisi reaksiyasining 86% unum bilan hosil bo'lgan mahsuloti oquvchanligi past bo'lgan quyusimon modda.

Olingan natijalar va tahlil. Termoanalitik tadqiqotlar DTG-60 SIMULTANEOUS DTA-TG APPARATUS SHIMADZU asbobida (Yaponiya), farfor tigelda o'tkazildi. Barcha o'lchovlar argon oqimi tezligi 80 ml/min. bo'lgan argon atmosferasida o'tkazildi. O'lchovlarning harorat oralig'i 25-900°C, isitish tezligi 10 °C /min. Na'muna massasi 6.16 mg ni tashkil qilgan.

Olingan sopolimerning derivatogrammasi keltirilgan bo'lib, u 2 ta egri chiziqdan iborat. Termogravimetrik analiz egri chizig'i (TGA)-ko'k rangli egri chiziq) 3 ta intensiv parchalanadigan temperatura oralig'ida tahlil qilingan. 1-parchalanish oralig'i 23.67-245.80 °C temperaturalarga, 2-parchalanish oralig'i 245.80-510.86 °C temperaturalarga, 3- parchalanish oralig'i esa 510.86 -900.38 °C temperaturalarga mos keladi. Ko'rinib turibdiki 2-parchalanish oralig'ida eng intensiv parchalanish jarayoni sodir bo'lgan. Ya'ni moddaning boshlang'ich massasi 57.215 % ga kamaygan.

DTA-(qizil chiziq) egri chizig'ida 2 ta endotermik effektlarni ko'rishimiz mumkin. 1-chi endotermik effekt TGA egri chizig'ining 2-parchalanish oralig'iga to'g'ri keladi. 1-chi endotermik effektning boshlanishi 251,86 °C ga, tugashi 424,59 °C ga, pik nuqtasi esa 399,49 °C ga to'g'ri keladi. 1-chi endotermik effektda 19,15 μ V (8,13 J yoki 1,94 cal) energiya yutilgan. 2-chi endotermik effekt TGA egri chizig'ining 3-parchalanish oralig'iga to'g'ri keladi. 2-chi endotermik effektning boshlanishi 661,73 °C ga, tugashi 707,34 °C ga, pik nuqtasi esa 692,61 °C ga to'g'ri keladi. 2-chi endotermik effektda 3,75 μ V (660,79 mJ yoki 157,86 mcal) energiya yutilgan.

Sintez qilingan sopolimer termik tahlilidan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, 245 °C gacha bo'lgan haroratda modda bor yo'g'i 2.9 % massa yo'qotgan. Bu massa yo'qotilishi erituvchi hisobiga to'g'ri keladi. Respublikamiz hududida haroratni yuqorigini hisobga olsak issiqqa chidamliligi muhim ahamiyatga ega.

Spektrda 3061 sm^{-1} sohada erkin $=\text{CH}$ -guruhlar uchun xos bo'lgan past va 3026 sm^{-1} sohada $=\text{CH}$ - sm^{-1} guruhlar uchun o'rtacha valent tebranish chastotalari kuzatildi. 2958 sm^{-1} sohalarda $=\text{CH}_2$ guruhlar uchun va 1271 sm^{-1} va 1022 sm^{-1} sohalarda $-\text{C}_6\text{H}_5$ - va $\text{CH}_2=\text{CH}$ - guruhlar uchun valent tebranish chastotalari, 698 sm^{-1} sohada $(\text{C}_6\text{H}_6)-\text{C}-\text{H}$ guruhlari uchun o'rtacha valent tebranish chastotalari namoyon bo'ldi.

Xulosa. Butilakrilat va stirol asosida 70-80 °C da R-646 erituvchisi ishtirokida sopolimer sintez qilindi. Monomer va erituvchi massa nisbatlari sopolimerlanish reaksiyasi unumiga ta'siri o'rganildi hamda butilakrilat va stirol 30:70, monomerlar va erituvchi 50:50 massa nisbatlarda olinganda sopolimerlanish reaksiyasi 86 % bilan borishi aniqlandi. Shuningdek, yuqoridagi nisbatlarda olingan sopolimer namunalarning qovushqoqligi ham yuqori ko'rsatkichlarni namoyon qilishi aniqlandi.

ADABIYOTLAR:

1. Коршунов, М. А. Синтез и применение глицидилметакрилата /М. А. Коршунов, В. С. Михлин, В.

С.Марусина// Промышленность синтетического каучука, 1979 г.

2. Белов, В.Д. Основные положения методических рекомендаций по разметке автомобильных дорог / В.Д. Белов. // Труды Союздорнии.- М., 2005.- Вып. 206.- С.23-42.

3. Козлов Л.В., Развитие производства акриловых лакокрасочных материалов / Л.Д. Завалимина, С.С. Дреземс - ЛКМ, 1975, №4, с. 19-25.

4. Медведев, С. С. Кинетика и механизм образования и превращения макромолекул. -М.: Наука, 1968, с.5.

5. Торопцева, А. М. Лабораторный практикум по химии и технологии высокомолекулярных соединений / А. М. Торопцева, К. В. Белгородская, В. М. Бондаренко. - Л.: Химия, 1972. - 416 с.

Kalit so'zlar: butilakrilat, stirol, monomer, sopolimer, sopolimerlanish, IQ-spektroskopiya, derivatogramma.

Maqolada butilakrilat va stirol monomeri asosida olingan sopolimerlarni termik barqarorligi o'rganildi. Termik tadqiqotlar natijasiga ko'ra, hosil bo'lgan sopolimerlar 245-269 °C largacha barqaror ekanligi aniqlandi.

IQ- spektroskopiyada reaksiyada ishtirok etgan va hosil bo'lgan guruhlarini piklari aniqlandi.

Butilakrilat va stirol monomeri asosida olingan sopolimerlarni qovushqoqligi aniqlandi.

Keywords: butyl acrylate, styrene, monomer, copolymer, copolymerization, IR-spectroscopy, derivatogram.

The thermal stability of copolymers based on butyl acrylate and styrene monomer was studied in the article. According to the results of thermal studies, it was found that the formed copolymers are stable up to 245-269 °C.

In IR spectroscopy, the peaks of the groups involved in the reaction and formed were determined.

The viscosity of copolymers based on butyl acrylate and styrene monomer was determined.

Xolmirzayev Firuz Suyun o'g'li

Tillayev Abdulhafiz Toshevich

Nurqulov Fayzulla Nurmuminovich

Djalilov Abdulahad Turopovich

-doktorant, Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti

-t.f.n, k.i.x., PhD, Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti

-t.f.d., prof, Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti

-t.f.d., akademik, Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti
direktori

UDK: 930.127. (575.1)

POLIMETILENNAFTALIN KARBON KISLOTA SINTEZI NATIJASIDA OLINGAN MODDALARNING TUZILISHINI O'RGANISH

F.Sh. Boboqulova, O.Sh. Kodirov S.E. Nurmanov, A.Sh. Khusenov, Sh.Sh. Hasanov

Kirish. Piroliz moyi - bu pirolizning ikkilamchi mahsuloti bo'lib, uning tarkibi xomashyoga bog'liq bo'lib, qaynash harorati 180°C dan yuqori bo'lgan uglevodorodlar aralashmasidan iborat. Hozirda piroliz mahsulotlari aniq ishlatilish sohasiga ega bo'lmasdan, aksariyat hollarda bug' qozon yoqilg'isining tarkibiy qismi sifatida ishlatilib kelinmoqda. Pirolizning ikkilamchi mahsulotlari Rossiyada yiliga 325000 tonnaga etadi. Beloruss "Polymir" OAJ "Naftan" zavodida ishlab chiqarishning hajmi yiliga 12000-16000 tonna. Ular tarkibida og'irlik bo'yicha 67 % aromatik uglevodorodlar, xususan naftalin va uning gomologlari 18% gacha uchraydi [1-7].

Sintetik ion almashinuvchilar sanoatda ikki usulda ishlab chiqariladi:

- molekulasi faol guruhlariga ega bo'lgan boshlang'ich monomer birikmalarining polimerizatsiyasi yoki polikondensatsiyasi;

- dienlar bilan vinil aromatik birikmalarning sopolimerlanishidan olingan makromolekulalar tarkibiga funksional guruhlarini kiritish orqali [3].

Tajriba qism. Piroliz moyi tarkibidan naftalin va uning gomologlarini ajratib olish uchun xomashyo sifatida "Uz-Kor Gas Chemical" MChJ ga qarashli Ustyurt gaz - kimyo majmuasining ikkilamchi mahsuloti "piroliz moyi" dan foydalanildi.

Piroliz moyini rektifikatsion haydash orqali fraksiyalarga ajratildi va ularning tarkibi o'rganildi (1-jadval). 220-250 °C oralig'idagi fraksiya tarkibini 1-metilnaftalin, 2-metilnaftalinlar 80% gacha, 260-270° C dagi fraksiya tarkibini 1,6-dimetilnaftalin 48% gacha tashkil qiladi.




Fazoviy tuzilishga ega polimetilennaftalin karbon kislotasi (kationit) sintezlash uchun quyidagi ketma-ket ishlar amalga oshirildi;

- Piroliz moyidan naftalin gomologlari ajratib olindi.

- Olingan naftalin gomologlari oksidlanib naftalin karbon kislotalar sintezlandi. (I-reaksiya)

- Naftalin karbon kislotalar aralashmasini formalin bilan (karbon kislotalar va formaldegid mol nisbati 1:2) yuqori bosim ostida polikondensatlandi va polikondensat 95-100° C da 24 soat davomida qizdirildi.(II va III reaksiyalar)

Yuqoridagi jarayonlarning reaksiya tenglamasi quyidagicha:



III-reaksiya

Olingan natija va ularning tahlili. Sintez qilingan 1-naftalin karbon kislotaning IQ- spektri olindi va

taxlil qilindi (1-rasm).




1-rasm. 1-naftalin karbon kislotaning IQ-spektri

Yuqoridagi IQ-spektrning taxlili shuni ko'rsatadiki, 3359,96 cm^{-1} soxada $-\text{OH}$ guruhining valent tebranishi, 3055,93 cm^{-1} soxada aromatik yadrodag C-H bog'ining valent

tebranishi, 1130,16 cm^{-1} soxada $-\text{CO}_2\text{H}$ guruhning valent tebranishini ko'rishimiz mumkin [8].

Sintez qilingan fazoviy tuzilishli polimetilennaftalin karbon kislotaning element analiz qilindi.(2-rasm)




2 - rasm. fazoviy tuzilishli polimetilennaftalin karbon kislotaning element analiz

1-Jadval

Fazoviy tuzilishli polimetilennaftalin karbon kislotaning element analiz natijalari

Element	Massa ulushi(%)	Atom soni jixatdan ulushi(%)
C	62,55	71,32
O	28,3	24,22
Na	4,65	2,77
S	2,25	0,96
Cl	1,3	0,5
Co	0,96	0,22

Karbokationitning termik barqarorligi termogravimetrik usul bilan o'rganildi.



3-rasm. Karbokationitning TG - termogravimetrik egri; DTA - differentsial termik egri chizig'i

Rasmda keltirilgan ma'lumotlar vazn yo'qotish bilan namuna tuzilishining o'zgarishini ko'rsatadi, birinchi bosqichda 104,6-356,5°C oralig'ida 26,27 %, ikkinchi bosqich esa 450,6-661,2°C, bu oraliqda 21,12%, 813,1-877,8°C gacha esa 8,63% modda massasini yo'qotdi. Olingan karbokationit 900°C gacha qizdirilganda umumiy 56,07% massasini yo'qotishi aniqlandi. O'rganilayotgan kationitlarning differentsial termik egri ikki endotermik cho'qqi bilan ifodalanadi. Bu endotermik ta'sir 450,6-661,2°C va 813,1-877,8°C oralig'larida sodir bo'lgan bu kationitdan termik destruksiya bilan tushintirish mumkin. KU-2 kationit uchun 353–413 K da energiya yutilishi bilan endotermik tepalik

kuzatiladi va uning destruksiya esa 423 K da kuzatiladi [9]. Shunday qilib, naftalin asosidagi olingan kationitning termal barqarorligi KU-2 kationitdan yuqori ekanligini ko'rish mumkin.

Xulosa. Uglevodorodlar piroliz jarayoni ikkilamchi maxsuloti piroliz moyidan olingan naftalin asosida polimetilennaftalin karbon kislotalar olindi va bu polimerning chiziqli oligomerini superplastifikator sifatida beton aralashmalarida, fazoviy polimeri karbokationit sifatida foydalanish mumkinligi aniqlandi.

Sintez natijasida olingan mahsulotlarning tarkibi, tuzilishi va xossalari o'rganish, tahlil qilishda xromato-mass spektr, IQ-spektr, SEM

analiz, element analiz, TG analizlardan foydalanildi.

Sintez qilingan polimetilennaftalin karbon kislolaning kationit xossasi o'rganildi zavodlardagi aylanma suvlarni turli metall kationlaridan tozalashda kationit sifatida amaliyotga joriy etildi.

Kationitlarning muhim ekspluatatsion xossasi COE(39tatic almashinish sig'imi) va DOE(dinamik almashinish sig'imi) aniqlandi. COE = 4,92 mg-ekv/g, DOE = 512 mol/m³. Sintez qilingan karbokationitlarning 39tatic va dinamik almashinish sig'imi KU-2-8 sulfokationiti xossasiga yaqinligi o'rganildi.

ADABIYOTLAR:

1. Преч Э., Бюльманн Ф., Аффольтер К. Определение строения органических соединений. М: Мир, 2006.
2. Браун Д., Флойд А., Сейнзбери М. Спектроскопия органических веществ. М: Мир, 1992.
3. Guoqiang Wang, Guitang Yang, Min.Jiang, Rui.Wang, Yin Liang, Guangyuan Zhou Poly(propylene naphthalate-co-propylene 2,5-thiophenedicarboxylate)s derived from bio-based 2,5-thiophenedicarboxylic acid (TDCA): Synthesis and properties Polymer Testing Volume 93, January 2021, 106955 <https://doi.org/10.1016/j.polymertesting.2020.106955>
4. C.P.Roupakias, D.N.Bikiaris, G.P. Karayannidis. Synthesis, thermal characterization, and tensile properties of aliphatic polyesters derived from 1,3-propanediol and terephthalic, isophthalic, and 2,6-naphthalenedicarboxylic acid J. Polym. Sci. Polym. Chem.,43 (17) (2005), pp. 3998-4011
5. Y.G. Jeong, W.H. Jo, S.C. Lee Crystal structure of poly(pentamethylene 2,6-naphthalate) Polymer, 43 (26) (2002), pp. 7315-7323
6. U. Stier, D. Schawaller, W. Oppermann Rheological properties of poly(trimethylene 2,6-naphthalenedicarboxylate) melts Polymer, 42 (21) (2001), pp. 8753-8757
7. C. Lorenzetti, L. Finelli, N. Lotti, M. Vannini, M. Gazzano, C. Berti, A. Munari Synthesis and characterization of poly(propylene terephthalate/2,6-naphthalate) random copolyesters Polymer, 46 (12) (2005), pp. 4041-4051
8. Беллами Л. Новые данные по ИК-спектрам сложных молекул. М.: Мир, 1971.
9. Наканиси К. Инфракрасные спектры и строение органических соединений. М.: Мир, 1965. 5. Беллами Л. ИК-спектры сложных молекул. М.: Мир, 1963.

Kalit so'zlar. Naftalin gomologlari, sintez, SEM, IQ, TG, DTA, naftalin karbon kislota, formalin, katalizator, rux xlorid, polikondensatsiya.

Maqolada mahalliy xomashyolar tarkibidan ajratib olingan naftalin gomologlari asosida kuchsiz kislotali polikondensatsion tipdagi kationitlar sintez va ularning tuzilishini turli fizik-kimyoviy tahlil usullari bilan o'rganish maqsadida olib borilgan izlanishlar natijalari keltirilgan. Kuchsiz kationit olish jarayonida naftalin karbon kislota formalin bilan polikondensatsiya jarayonida polimetilen naftalin karbon kislota olingan va SEM(skannerlovchi elektron mikroskop), IQ-spektr, TG(termogravimetriya) va DTA(difrensial termik analiz) tahlil usullarida tarkibi solishtirma o'rganilgan.

Ключевые слова. Гомологи нафталина, синтез, СЭМ, ИК, ТГ, ДТА, нафталинугольная кислота, формалин, катализатор, хлорид цинка, поликонденсация.

В статье представлены результаты исследований, проведенных по синтезу слабокислых катионитов поликонденсационного типа на основе гомологов нафталина, выделенных из местного сырья, и изучения их структуры различными методами физико-химического анализа. При поликонденсации нафталинугольной кислоты с формалином в процессе получения слабого катионита была получена полиметиленафталинугольная кислота, и ее состав сравнили с помощью методов СЭМ (сканирующего электронного микроскопа), ИК-спектра, ТГ (термогравиметрии) и ДТА (дифференциального термический анализ).

Key words. Naphthalene homologs, synthesis, SEM, IR, TG, DTA, naphthalene carbonic acid, formalin, catalyst, zinc chloride, polycondensation.

The article presents research results conducted to synthesize weakly acidic polycondensation type cationites based on naphthalene homologs isolated from local raw materials and study their structure by various physicochemical analysis methods. During the polycondensation of naphthalene carbonic acid with formalin, polymethylene naphthalene carbonic acid was obtained in the process of obtaining a weak cationite, and its composition was compared using SEM (scanning electron microscope), IR-spectrum, TG (thermo gravimetry) and DTA (differential thermal analysis).

S.E. Nurmanov
A.Sh. Khusenov
Sh.Sh. Hasanov

O'zbekiston Milliy universiteti professori
Toshkent kimyo-texnologiya institute professori
Alfraganus universiteti dotsenti

UO'T 541.13; 547.551.5; 661.728.892; 544.72

PO'LAT KORROZIYASIDA NATRIY-KARBOKSIMETILSELLULOZA VA FOSFORLI BIRIKMALAR ASOSIDAGI INGIBITORLARNING FIZIK-KIMYOVIY XUSUSIYATLARI

L.M. Qurbanova, H.I. Akbarov, N.B. Eshmamatova, A.J. Xoliqov

Kirish. Neytral muhitda Na-KMS natriy pirofosfat bilan ikki komponentli ingibitorlar sifatida foydalanilganda korroziyadan himoyalash darajasi 96,83% gacha etganligi aniqlangan. Pirofosfat va uniflok asosidagi ikki komponentli ingibitorlar bir xil yuqori himoyalash darajasiga ega, bu erda $Z=97,64\%$ ga yetganligi mualliflar olib borgan ishlaridan ma'lum. Ikki komponentli ingibitorlarning eritmalarida R-COO⁻ poliionlari mavjud bo'lib, ular po'lat yuzasida ham adsorbsiyalanishi mumkin. -CH₂COONa guruhining kiritilishi makromolekulaning gidrofilligini oshiradi va Na-KMS molekulasini va suv molekulasini orasidagi vodorod bog'larining tuzilishini o'zgartiradi [1].

Natriy-karboksimetilsellulozaning ingibitorlik xossasi eng yuqori bo'lgan birikmalardan biri ekanligi va boshqa birikmalardan ajralib turishi aniqlangan. Samaradorligi eksperimental ravishda o'rganilgan hamda Na-KMS va eritmadagi boshqa ionlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir molekulyar dinamika simulyatsiya usullari yordamida o'rganilgan. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, Na-KMS qo'shilishi bilan korroziya sezilarli darajada kamayishi aniqlangan. Ushbu ma'lumotlar olingan natijalardagi korroziya tokining kamayishi bilan izohlab tushuntirishgan [2].

Bu ish metall korroziya ingibitorlarini tarkibidagi azot va fosforning mavjudligi bilan tushuntirilgan. Mahalliy xomashyo asosida samarali, ekologik toza ingibitorlarni yaratish va po'lat korroziyasiga ishlatish mumkunligi aniqlangan. Olingan ma'lumotlar sirt qatlamlarini shakllantirib metallarni samarali himoya qilishi, yangi ilmiy yo'nalishini shakllantirishga aniq hissa


qo'shadi [3].

Tadqiqot ob'ekti va usullari. Tadqiqot ob'ektlari sifatida Na-KMS va fosfor tutgan birikmalar tanlab olindi. Bunda Na-KMS, anilin, dietilamin, fosfat kislotasi, natriy tripolifosfat kabi birikmalardan foydalanildi. Po'latning korrozion xususiyatlarini o'rganish uchun plastinka shaklidagi po'lat 3 va 45 namunalari qo'llanildi. Shuningdek, elektrokimyoviy usulda po'lat namunalarini sirtini o'zgarishi ingibitorlar ta'sirida qatlam hosil qilishi hamda ingibirlanish mehanizmi o'rganildi.


Anilinning fosfat kislotasi bilan sintezida uch og'izli kolbaga 0,1M anilinning spirtidagi va fosfat kislotasi eritmaları quyildi. Tayyorlangan eritmaları magnit aralashtirgich bilan harorat 80°C da 8 soat davomida sovitgichga ulab, yopiq sistemada sintez olib borildi. Hosil bo'lgan massa ochiq havoda sovitildi. Sovitilganda tuzsimon massa hosil bo'ldi va uni filtrdan o'tkazildi. Filtrat 40-45°C da quritildi.

Dietilaminni fosfatli tuzi sintezida uch og'izli kolbaga 0,1M dietilaminning spirtidagi va fosfat kislotasi eritmaları quyildi. Tayyorlangan eritmaları magnit aralashtirgich bilan harorat 80°C da 6 soat davomida sovitgichga ulab, yopiq sistemada sintez olib borildi. Filtrat 40-45°C da quritildi.

Natriy-karboksimetilsellulozaning fosfat kislotasi bilan sintezi. Natriy-karboksimetilsellulozani (Na-KMS) 3% li eritmasi tayyorladik va 20°C da magnitli aralashtirgichda to'liq eriguncha jarayonni kuzatdik. Na-KMS ni fosfat kislota bilan sintezi quyidagi mehanizm bo'yicha yoziladi:



Natijalar va muxokama. Rentgen fazaviy analiz usuli. Ushbu usul kristallarning atom tuzilishini o'rganish uchun eng muvaffaqiyatli usullardan biridir. 1-rasmda natriy-karboksimetilsellulozaning fosfat kislotasi bilan xosilasining rentgen diffraktogrammasi va 3-jadvalda parametri qiymatlari izoxlangan. Natriy-karboksimetilselluloza va fosforli birikmalar asosida olingan ingibitorlarning IQ spektrlari va ularning taxlillari. Ingibitorlarni himoyalash xususiyati ayrim metallarda $-NH_2$, $=NH$, CN , $N=O$, $C=C$, $-C=O$, OH , $P-O-H$, $P=O$, COO^- ; funktsional guruh tutgan birikmalarda kuchliroq ekanligi oldindan ma'lum.




1-rasm. Natriy-karboksimetilsellulozaning fosfat kislotasi bilan hosilasining rentgen diffraktogrammasi

1-jadval

Natriy-karboksimetilsellulozaning fosfat kislotasi bilan hosilasining rentgen diffraktogrammasi asosida olingan parametri qiymatlari

T/r	2Theta[°]	$\cos \theta = \frac{2\theta}{2}$	FWHM $\beta = \text{rad}$	K	λ	$d = \frac{K\lambda}{\beta \cos \theta}$	d = umum $d_{um}=0.1865$
1	12.4843	6.4221	0.8834	0.9	0.54Å	0.0857	
2	13.3306	6.6653	0.9500	0.9	0.54Å	0.0767	
3	14.2772	7.1386	0.3900	0.9	0.54Å	0.1746	
4	15.3739	7.6869	0.5100	0.9	0.54Å	0.1239	
5	15.8680	7.9340	0.8909	0.9	0.54Å	0.0687	


Natriy-karboksimetilselluloza va fosfat kislotasi asosida sintez qilingan birikmasi IQ spektri keltirilgan, ya'ni $3394,72-2839,22 \text{ cm}^{-1}$ sohalarda OH ga tegishli bo'lgan tebranishlar; $2355,08-2123,63 \text{ cm}^{-1}$ sohalarda P-O-H ga tegishli chiziqlar namoyon bo'ldi. $1716,65-1635,64 \text{ cm}^{-1}$ chastotada $-C=O$ ga tegishli chiziqlar; $1450,47$ soha COO^- karboksilat anioniga tegishli bo'lganligi aniqlandi; $1114,86$ sohada P=O ga tegishli bo'lgan signal; $671,23 \text{ cm}^{-1}$ sohalarda birikmadagi CH; $596,00-453,27 \text{ cm}^{-1}$ sohalarda (Na-O) bog'lariga tegishli tebranishlar mavjudligi ko'rindi.



2-rasm. Natriy-karboksimetilsellulozaning fosfat kislotasi bilan olingan birikmasining IQ spektri

Qutblanish egrilari usuli ingibitorlarning samaradorligini aniqlashning ekspress usullaridan biri hisoblanadi, elektrokimyoviy usullar qatoriga kiradi [4]. Tadqiqot obyektlari hisoblangan Na-KMS, anilin fosfat, dietilamin fosfat, Na-

KMS $\cdot H_3PO_4$, Na-KMS $\cdot Na_5P_3O_{10}$ birikmalarini (Fon-1) eritmada sodir bo'luvchi elektrokimyoviy jarayonlarning kinetikasini o'rganish natijalari tahlil qilindi va qutblanish egrilari olindi, po'lat 45 namunasida $25^\circ C$ haroratda olib borilgan tajriba natijalariga ko'ra metallni korroziyaga uchratuvchi (Fon-1) eritmada korrozion tokning qiymati $0,68 \text{ mA/cm}^2$ ga, stasionar korroziya potensialining qiymati $0,420 \text{ B}$ ga teng bo'ladi. Korroziya ingibitorlarini qo'llashda asosiy e'tibor po'lat asosidagi namunalar bo'lib, ular asosida kompleks tuzlar hosil bo'lishi, metall sirtida himoya qatlamlarning agressiv muhitda samarali natija bilan himoya qilishi aniqlandi [5;6]. Keltirilgan reaksiya mexanizmi maqsadga muvofiqdir, modomiki birinchi bosqichda OH^- molekullari emas, balki H_2O molekullari qatnashadi, u suvli muhitlar uchun hosdir.



3-rasm. Qutblanish egrilari usuli yordamida olingan natijalar fon eritmasi pH=5,3 (5% Na_2SO_4 +3% H_2SO_4) li muhitda 30 mg/l miqdorda turli ingibitorlarni kiritilgandagi

natijalari Fon (1); Na-KMS·Na₅P₃O₁₀ (2); Na-KMS·H₃PO₄ (3); (Na-KMS+AF) (4); DEAF (5); (Na-KMS+DEAF) (6); AF(7)

Kuchsiz kislotali va ishqoriy muhitlarda olib borilgan tajribalar orqali shu narsa aniqlandiki,


sintez qilingan birikmalar orasida po'lat 3 va 45 namunalarini samarali himoyalaydigan korroziya ingibitorlari mavjud, bunday ingibitorlar qatoriga (C₂H₅)₂NH·H₃PO₄, Na-KMS·H₃PO₄, Na-KMS·Na₅P₃O₁₀ kabi ingibitorlarni kiritish mumkin.

2-jadval

Po'lat 45 namunalarining 25°C 3% pH=5,3 (5%Na₂SO₄ + 3%H₂SO₄) fon eritma tarkibida turli ingibitorlarni (C=30 mg/l) miqdorda himoyalash darajasini gravimetrik usuldagi aniqlash natijalari

Ingibitorlar	15 kunlik natija				30 kunlik natija			
	K,g/(m ² sut)	Π	γ	Z, %	K,g/(m ² sut)	Π	γ	Z, %
Fon-1 (pH=5,3)	2,61	4,99·10 ⁻³	-	-	2,43	9,6·10 ⁻⁵	-	-
Na-KMS	0,45	8,63·10 ⁻⁴	5,8	82,73	0,39	1,52·10 ⁻³	6,1	83,65
(C ₂ H ₅) ₂ NH·H ₃ PO ₄	0,31	6,07·10 ⁻⁴	8,23	87,83	0,28	1,11·10 ⁻³	8,4	87,15
Na-KMS·H ₃ PO ₄	0,27	5,22·10 ⁻⁴	9,6	89,55	0,23	8,89·10 ⁻⁴	10,4	90,46
C ₆ H ₅ NH ₂ ·H ₃ PO ₄	0,24	4,71·10 ⁻⁴	10,6	90,57	0,20	7,84·10 ⁻⁴	11,8	91,58
Na-KMS·Na ₅ P ₃ O ₁₀	0,21	4,05·10 ⁻⁴	12,3	91,88	0,18	6,94·10 ⁻⁴	13,4	92,58
(NaKMS+ (C ₂ H ₅) ₂ NH·H ₃ PO ₄)	0,18	3,57·10 ⁻⁴	13,9	92,85	0,16	6,28·10 ⁻⁴	14,8	93,26
(NaKMS+ C ₆ H ₅ NH ₂ ·H ₃ PO ₄)	0,18	3,45·10 ⁻⁴	14,4	93,08	0,14	5,54·10 ⁻⁴	16,7	94,05

Bir vaqtning o'zida bir qancha funksional guruhlarni bo'lishi sinergizm effektini kuzatilishi va ingibirlanish natijasida yuqori samaradorli ingibitorlar qatoriga ikkinchi komponentli birikmalardan fosfor asosidagi amino guruh tutgan ingibitorlarni kiritishimiz mumkin [7;8].



Xulosalar. Natriy-karboksimetilselluloza va fosforli birikmalar asosidagi samaradorligi yuqori bo'lgan korroziya ingibitorlari aniqlandi. Olib

borilgan elektrokimyoviy, gravimetrik tadqiqotlar asosida korroziya tezligi, tormozlash koeffitsiyenti, himoyalash darajasi kabi parametrlar hamda organik birikmalarni ikkinchi komponent bilan qo'llaganda optimal harorat va konsentratsiya aniqlandi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida yanada samarali birikmalar aniqlanib, NaKMS+DEAF va Na-KMS+AF kabi ingibitorlarni kiritilishi natijasida fon eritmasida korrozion faollikni pasaytirishi va po'latni korroziya natijasida yemirilishdan 93,26–94,05% himoyalagani kuzatildi. Ushbu ma'lumotlar elektrokimyoviy usullar bilan ham tasdiqlandi.

ADABIYOTLAR:

1. Холиков А.Ж., Акбаров Х.И. Новые аминоксодержащие ингибиторы коррозии стали для пластовых вод // Коррозия: материалы, защита. -2014. – №10. – С. 30-34.
2. Zhao Y. Scale inhibition performance of sodium carboxymethyl cellulose on heat transfer surface at various temperatures: Experiments and molecular dynamics simulation // International Journal of Heat and Mass Transfer. –2019. –T.141. – С. 457-463.
3. Холиков А.Ж. Защита углеродистой стали различных ингибиторов в имитате пластовой воды // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. -2013. – №.11-1. – С. 52-53.
4. Berdimurodov E., Kholikov A., Akbarov K., Guo L., Kaya S., Verma D.K., Rbaa M., Dagdag O. New and Green Corrosion Inhibitor Based on New Imidazole Derivate for Carbon Steel in 1 M HCl Medium // Experimental and Theoretical Analyses. -2022. -№1. -P. 11–44.
5. Эшмаматова Н.Б., Акбаров Х.И. Ингибиторы коррозии металлов на основе монофосфат гексаметилендиамина // Композиционные материалы. -2013. -№2. – С. 41-43.
6. Эшмаматова Н.Б., Акбаров Х.И. Исследованиеэффективности олигомерных ингибиторов коррозии металлов на основе различных азотсодержащих органических соединений и фосфорной кислоты // Доклады Академии наук Республики Узбекистан. -2014. -№ 2. – С. 47-51.
7. Н.Б. Эшмаматова, Л.М. Курбанова, Ҳ.И. Акбаров, Л.А.Азимов Органик аминлар ва хром бирикмалари асосидаги ингибиторларнинг физик-кимёвий хусусиятлари // Монография. Издательство «Lesson press». -2022. -142 б.

8. Курбанова Л.М., Алиева З.В., Азимов Л.А., Эшмаматова Н.Б., Акбаров Х.И. Ингибиторы коррозии металлов на основе натрий-карбоксиметилцеллюлозы и фосфорсодержащих органических соединений // Innovative solutions to technical engineering and technological problems of production. Jizzax-2022. –С. 161-162.

Kalit so‘zlar. Korroziya, ingibitor, natriy-karboksimetilselluloza, anilin dietilamin, fosfat kislota, natriy tripolifosfat, po‘lat.

Sanoatda korroziya natijasida vaqt o‘tishi bilan metall materiallarining tabiiy holatini yo‘qolishiga va atrof muhitning ifloslanishiga olib keladi. Metall bilan adsorbsion ta’sirlashuv natijasida uning himoyalash xossalari turli haroratlarda qanday namoyon bo‘lishi va reaksiya mexanizmlarini o‘rganish natijasida yangi samaradorli ingibitorlar ishlab chiqarish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ilk bor natriy-karboksimetilselluloza, dietilamin va anilinning fosforli hosilalari ingibitor sifatida qo‘llanilgan.

Ключевые слова. Коррозия, ингибитор, натрий-карбоксиметил-целлюлоза, анилин, диэтиламин, фосфорная кислота, триполифосфат натрия, сталь.

В результате промышленной коррозии металлические материалы со временем теряют свое естественное состояние и вызывают загрязнение окружающей среды. В результате адсорбционного взаимодействия металлов с ингибиторами проявляется его защитные свойства при различных температурах и изучение механизмов реакций создание новых эффективных ингибиторов и их физико-химических свойств является одной из актуальных задач современной науки. В качестве ингибиторов впервые использованы фосфорсодержащие производные натрий карбоксиметилцеллюлозы, диэтиламина и анилина.

Key words. Corrosion, inhibitor, sodium-carboxymethylcellulose, aniline, diethylamine, phosphoric acid, sodium tripolyphosphate, steel.

As a result of industrial corrosion, metal materials lose their natural state over time and cause environmental pollution. As a result of adsorptive interaction with metal, how its protective properties are manifested at different temperatures and the study of reaction mechanisms, production of new effective inhibitors is one of the urgent tasks today. Phosphorous derivatives of sodium-carboxymethylcellulose, diethylamine and aniline were used as inhibitors for the first time.

Qurbanova Latofat Mamadiyorovna
Eshmamatova Nodira Baxromovna

– Jizzax politexnika instituti kimyo kafedrasi katta o‘qituvchisi
– O‘zbekiston Milliy universiteti kimyo fakulteti fizikaviy kimyo kafedrasi dosenti, k.f.d.

Akbarov Xamdam Ikromovich

– O‘zbekiston Milliy universiteti kimyo fakulteti fizikaviy kimyo kafedrasi mudiri, professor, k.f.d.

Xoliqov Abduvali Jonuzoqovich

– Oliy ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish bosh boshqarmasi boshlig‘i, professor, k.f.d.


УДК. 66.011

ТАРКИБИДА АЗОТ ТУТГАН КОМПЛЕКС ҲОСИЛ ҚИЛУВЧИ ИОНИТЛАРНИ ОЛИШ ВА ФИЗИК – КИМЁВИЙ ХОССАЛАРНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ


Д.Р. Гулбоева

Полимер матрицага имобилланган лигандлар гидрометаллургияда турли металл ионларини концентрлашда, таркибида оғир металл ионлари бўлган чиқинди эритмаларни зарарсизлантиришда сорбент сифатида кенг қўлланилади. Ҳозирда ионалмашувчи, комплекс ҳосил қилувчи полимерлар ва полимер матрицаларнинг катта ассортименти ишлаб чиқилган. Маълумки, бу каби полимер лигандларни олишнинг саноат усуллари турли функциональ гуруҳ тутган мономерларни поликонденсациялаш, полимерлаш ва сополимерлаш ҳисобланади.

Адабиётлар таҳлиллари орқали хелат ҳосил қилувчи, марганец (II) ионига нисбатан юқори танловчанликка эга бўлган, янги толали сорбентлар синтез қилиш мақсадида полимер матрица сифатида “нитрон” толасидан фойдаланилиб, унга икки босқичли синтез жараёнида комплекс ҳосил қилувчи гуруҳлар киритилганлиги ҳақида кенг маълумотлар берилган [20; 60-б.]:



сувли фазада имидоамин тузилиш




буғ фазада имидоазолин ҳалқали тузилиш

Бундан ташқари малеин ангидриднинг стирол билан сополимерини рубановодород кислота билан модификациялаб, янги полимер лиганд синтез қилинган. Синтез қилинган

полимер лигандда кобальт (II) ионлари сорбция изотермаси тузилган ва уни концентралашнинг оптимал шароити ўрганилган. Оптимал шароитда кобальт (II) ионларининг ажралош даражаси 95% дан юқори бўлиши кўрсатиб берилган.

Биз таклиф қилган азот тутган комплекс ҳосил қилувчи ионитларни аурен асосидаги бирикмалар тақил этади. Ушбу моддаларни олиш ва ИК-спектроскопия ҳамда уларни комплекс бирикмаларни электрон микроскоп анализлари тадқиқ этилди.



1-Расм. Ауренни нитро бирикмасининг ИК-спектроскопияси

ИК –спектроскопияси таҳлил қилинди. Ик-спетроскопиянинг 3000-2900 cm^{-1} ва 770-690 cm^{-1} соҳаларида $-\text{CH}$ жойлашган бўлиб улар ароматик ҳалқасидаги водород атомлари сони билан боғлиқлиги адабийётларда келтирилган. ИК-спектроскопия таҳлилида характерли бўлган баъзи ароматик бирикмаларни асосий ютилиш чизиқлари 3000-2900 cm^{-1} оралоқларида кўринади. Гидроксил гурухининг боғ ҳосил қилишида молекула тузилиши катта аҳамиятга эга бўлиб OH гурухининг тебраниш частотаси фенил гурухининг деформацияли тебраниш частоталари соҳасида бошқа гурухлар 1228-1134 cm^{-1} ва 1450-1300 cm^{-1} ютилиш частотаси ҳосил қилганлиги аниқланди. ИК-спетроскопия таҳлилида ароматик бирикмаларни ҳосил қилувчи кўш боғли чизиқларни ўзгарувчан бўлган 1600-1500 cm^{-1} оралоқдаги $\text{C}=\text{C}$ соҳаларда намоён бўлиши аниқланди. Бундан ташқари 1583-1568 cm^{-1} ва 1498-1442 cm^{-1} ўзгарувчан интенсивликдаги 1600-1450 cm^{-1} оралоқда ютилишларда кучли $\text{C}=\text{O}$ бантлари кучлироқ кўриниши ўрганилди.

Синтез қилиб олинган ауреннинг нитрозобирикмасини $-\text{N}=\text{O}$ ИК-спектроскопияси бошланғич модда ауренни структурасидан нитрозобирикмаларни ҳосил

қилганлиги билан фаркланади. Унга кўра ушбу $-\text{N}=\text{O}$ гурухлари 1352 cm^{-1} - 1444 cm^{-1} ва 1284-1220 cm^{-1} соҳаларида ютилишлари мавжудлиги аниқланди.


Ушбу таклиф этилаётган ауренни нитро бирикмасини толали материалларга иммобиллаб, оғир ва заҳарли металлларни комплекс ҳосил қилиб аниқлашда жуда қулай ҳисобланади. Толали ташувчилар яхши кинетик ва ион алмашилиш хусусияти билан тавсифланади. Улар бир вақтнинг ўзида эритмадаги элемент ионларини аниқлаш имконини беради, қиздирилганда ҳам механик чидамли бўлган, бундан ташқари улар кучли кислотадан кучсиз ишқорий муҳитга ҳам чидамли ҳисобланади.

Таҷрибалар натижасида азот тутган комплекс ҳосил қилувчи ионитларни элестрон микроскоп анализини тадқиқ этиш ва уларни таҳлиллари олиб борилган. Сканерли электрон микроскопия (СЕМ) полимернинг морфологияси адабиётда тасвирланган бошқа полимерларга ўхшашлигини кўриш имконини беради.

Таклиф қилинаётган намуналарни сканерли электрон микроскоп ва элемент таҳлилларини тадқиқ этиш орқали намуна таркибидаги моддаларни бир хилда тарқалиши


хамда таъсир этиш механизмларни ўрганиш имконини беради. Аурен асосидаги нитро бирикмасини СЕМ анализлари олинган намунада аурен нитро бирикмалар сорбент сифатида фойдаланилган. Аурен нитро

бирикма орқали тола (ППА) эомобилланган. Олинган намунага мис метилли юттирилиб СЕМ анализи орқали ўрганилганда унинг юзасида моддаларнинг қандай тарқалганлиги ўрганилди (2-расм).



2-Расм. Олинган намунага мис метилли юттирилган СЕМ анализи

Шундай қилиб, намуналарни электрон микроскоп таҳлиллари натижаси ўрганилганда таркибидаги кимёвий моддаларни бир хилда тарқалганлигини, юзасида ва катталаштирилган электрон микроскоп таҳлил заррачаларни тарқалиши аниқ ҳамда турли сифатсиз ҳолатлар йўқлигини кўрсатди. Мисол: 2-расмда толага аурен нитро бирикма эомобилланиб намунаунг СЕМ тасвири олинган. Тасвирдан кўриниб турибдики толаларда ионит (аурен нитро) бирикмалари бир хилда тарқалган. 2- расмда мис юттирилгандан кейин СЕМ тасвири олинган ва тасвирдан кўришимиз мумкинки мис метилли юзага бир хилда тарқалган.



3-Расм Олинган намунани элемент анализи

Олинган намунамизни таркибида қандай элементлар борлигини ўрганиш учун элемент анализи олинди. Анлиз натижасида намуна таркибида Cu, Al, Fe, N ва бошқа элементлар борлигини кўришимиз мумкин.

АДАБИЁТЛАР:

1. Кузнецов Н.Т. Горизонты координационной химии // XXV международная Чугаевская конференция по координационной химии и II молодежная конференция-школа «Физико-химические методы в химии координационных соединений», -Суздаль, 6-11 июня 2011. -с. 9.
2. Исмаилов И.И., Джалилов А.Т., Аскарлов М.А. Химически активные полимеры и олигомеры. – Ташкент: -Фан, -1993. -232 с.
3. Абдутапилова Н.М., Турсунов Т.Т., Назирова Р.А., Мухамедова М.А. Исследование комплексообразующей способности ионитов поликонденсационного типа // VII Всероссийская интерактивная конф.(с международным участием) молодых учёных / Современные проблемы теоретической и экспериментальной химии, Саратов, -2010. - С.235-236.
4. Horwitz E., Dietz M., Chiarizia R. The application of novel extraction chromatographic materials to the characterization of radioactive waste solutions //Journal of Radioanalytical and nuclear chemistry. – 1992. – Т. 161. – №. 2. – С. 575-583.
5. Smith L. L., Crain J. S., Yaeger J. S., Horwitz E. P., Diamond H., Chiarizia R. Improved separation method for determining actinides in soil samples //Journal of Radioanalytical and Nuclear Chemistry. – 1995. – Т. 194. – №. 1. – С. 151-156.
6. Dietz M. L., Yaeger J., Sajdak Jr, L. R., Jensen M. P Characterization of an improved extraction chromatographic material for the separation and preconcentration of strontium from acidic media //Separation science and technology. – 2005. – Т. 40. – №. 1-3. – С. 349-366.

7. Horwitz E. Ph., Dietz ML, Rhoads S., Felinto C., Gale NH //Houghton J., Anal. Chim. Acta. – 1994. – Т. 292. – №. 3. – С. 263-273.
8. Surman J. J. et al. Development and characterisation of a new Sr selective resin for the rapid determination of ^{90}Sr in environmental water samples //Talanta. – 2014. – Т. 129. – С. 623-628.
9. Выдыш А. А., Довгий И. И., Бежинб Н. А. Сорбенты импрегнированного типа на основе бензо-15-крауна-5 для извлечения золота (III) из солянокислых растворов //Известия Академии наук. Серия химическая. – 2018. – №. 12. – С. 2275-2281.
10. Попова Н. Н. и др. Сорбция америция (III) из многокомпонентных растворов сорбентами на основе макроциклических полиэфиров //Журнал неорганической химии. – 2011. – Т. 56. – №. 7. – С. 1196-1201.
11. Bezhin N. A., Dovhyi I. I., Lyapunov A. Y. Sorption of strontium by the endoreceptor dibenzo-18-crown-6 immobilized in a polymer matrix //Journal of Radioanalytical and Nuclear Chemistry. – 2015. – Т. 303. – №. 3. – С. 1927-1931.
12. Bezhin N. A., Dovhyi I. I., Lyapunov A. Y. Sorption of strontium by sorbents on the base of di-(tert-butylcyclohexano)-18-crown-6 with use of various diluents //Journal of Radioanalytical and Nuclear Chemistry. – 2017. – Т. 311. – №. 1. – С. 317-322.

Калит сўзлар: азот тутган комплекс бирикмалар, композит, ИҚ-спектроскопия, электрон микроскоп анализини, иммобиллаш.

Мақолада таркибида азот тутган комплекс ҳосил қилувчи ионитларни олиниши структураси ИҚ – спектроскопия анализи ва электрон микроскоп анализини тадқиқ этиш ва уларни таҳлиллари олиб борилган ҳамда физик – кимёвий хоссалари таҳлил қилинган. Анализлар натижасида намуна таркибида Cu, Al, Fe, N ва бошқа элементлар борлиги тадқиқотлар асосида аниқланган.

Д.Р.Гулбоева

Тошкент кимё технология илимий-тадқиқот институти

ЯНТАР КИСЛОТАСИНИНГ ЯНГИ ҲОСИЛАЛАРИ СИНТЕЗИ

Б.А. Юсупов, У.К. Абдурахманова

Таркибида функсионал фаол гуруҳлари сақлаган моддалардан бири бўлган glutamining (Glu) муҳим хусусияти унинг јигар ва buyrak zaharlanishida immunitet omili bo'lib xizmat qilish qobiliyatidir, shuningdek, glutamin kislotasi farmakologik ta'sirni kuchaytiradi yoki terapevtik vositalarning zaxarlilik (toksiklik) xususiyatini kamaytiradi va boshqa aminokislotalar bilan birga atrof-muhitning doimiy reaksiyasini saqlaydi. Glutamin (Glu) kislotaning organizmga kiritilishi bilan ko'plab kasalliklarni davolash mumkin [1-2].

Glutamin yoki 2-aminopentanamid-5 kislotasi organizm uchun muhimdir, chunki u normal inson hayoti uchun zarur bo'lgan bir qator funktsiyalarni bajaradi: u oqsillar va uglevodlar almashinuvida ishtirok etadi, oksidlanish jarayonlarini faollashtiradi, vodorod nitridi (ammiak) ni yo'q qilish va tanadan olib tashlashga yordam beradi. Bundan tashqari, atsetilxolin va adozin trifosfor kislotasining shakllanishiga, kaliy ionlarining o'tkazilishiga yordam beradi [2-3].

Immun tizimi faoliyatini normallashtirish xossaga ega bo'lgan Glutamin kislotasini yantar kislotasi bilan ta'sir reaksiyasini o'rganish asosida yantar kislotasining yangi hosilasi sintez qilindi. Adabiyotlarda qayd etilishcha, yantar kislotasi

molekulasidagi funktsional faol guruhlari reaksiya markaz bo'lib, yangi sintez uchun asos bo'ladi [1-3].

Yantar kislotaning metilen guruhlari karboksil guruhlari ta'sirida yuqori reaksiya qobiliyatga ega. Bromlanganda yantar kislotasi dibromosuksin kislotasi $\text{HOOC}-(\text{CHBr})_2-\text{COOH}$ hosil qiladi. Ammiak va tarkibida amino guruhlari saqlagan birikmalar bilan suksinimidlar va va uning N-almashtirilgan analoglarini ($\text{R}-\text{H}$, alkil yoki aril guruhi) hosil qiladi. Aromatik va geterotsiklik aminlar bilan olingan suksin kislotasining mono- va diamidlari ma'lum bo'yoqlar, insektitsidlar va dorivor moddalarni sintez qilishda asosiy xomashyo vazifasini o'taydi [4-5].

Yantar kislotasi yoki etan-1,2-dikarbo kislotasi ikki asosli kuchsiz kislotalardan biri bo'lib, tabiatda keng tarqalgan, u dastlab qahrabodan olingan. Asosan qaxraboda, qo'ng'ir ko'mirda, o'simliklar va ayniqsa mevalar tarkibida ko'p uchraydi. Ko'pchilik biologik jarayonlarda ishtirok etadi, organik sintezda boshqa atsil hosilalarining efirlarni olishda ishlatiladi. Shuningdek, o'simliklarning rivojlanishida, o'sishida hamda stimulyator sifatida keng foydalaniladi. Sintetik usulda qahrabo kislotani

dibrometandan uning tsianid hosilasi orqali olish mumkin. Texnikada yantar kislota to'ynmagan ikki asosli kislota malein kislotasini gidrogenlash natijasida olinadi [4-5,6].

Yantar kislotasi rangsiz kristall modda bo'lib, suvda yaxshi eriydi, suyuqlanish xarorati 183 °C bo'lib, qaynash xarorati 235 °C ni tashkil etadi. U suyuqlanish xaroratidan yuqori qizdirilganda osonlik bilan bir molekula suv ajratib chiqarib, tsiklik yantar angidridga aylanadi. 130—140 °C da yantar kislotasi quruq xaydaladi va shu xossasi sanoatda qahraboni quruq haydash natijasida olinishiga asos bo'lgan [4-5]. Suvda eruvchanligi (100 g suvda): 6,8 g (20 °C da), 121 g (100 °C da). Etil spirtida- 9,9 g (5 °C); dietil efirda - 1,2 g (15 °S) eriydi, benzol, benzin va xloroformda erimaydi. Dissotsilanish konstantalari $K_{a1} = 7,4 \cdot 10^{-5}$, $K_{a2} = 4,5 \cdot 10^{-6}$ ni tashkil etadi.

Ushbu tadqiqot ishining maqsadi yantar kislotasining glutamin bilan yangi hosilasini sintez qilish, sintez qilingan yangi moddaning ayrim fizik-kimyoviy xususiyatlarini aniqlab, tuzilishini IQ-spektroskopik usulda tadqiq qilishdan iborat.

Tajriba qismi. Tadqiqot usullari. Tadqiqotni olib borish jarayonida distillyasiya, filtratsiya, xromatografiya, shuningdek, quritish usullari va pH-metriya, IQ-spektroskopiya, usullaridan foydalanildi.

Kimyoviy reagentlar, materiallar va uskunalar. Tadqiqotni olib borish uchun quyidagi moddalarning eritmaları: yangi haydalgan (tozalangan) etil spirti, atseton, yantar kislotasi, glutamin kabi kimyoviy jixatdan toza bo'lgan (k.t. va a.u.t) organik moddalar qo'llanildi.

YuQX uchun: atseton-etanol-dietil efir (7:4:1) erituvchilar sistemasidan foydalanildi.

Xromatografiya dog'larini ochish uchun sulfat kislotaning (H₂SO₄) 10% li spirtli eritmasi va yodli kameradan foydalanildi.

Tajribalarda reaksiya davomida doimiy aralashtirib turish jarayoni MM-5 TU 25-11834-80 rusumli magnit aralashtirgichda amalga oshirildi. Sistemadan organik ertuvchilarni IR-1M2 rotorli bug'latgichda bug'latib, ajratib olindi. Quritish uchun (AutomaticFREEZE-Dryer10-010) liofil


qurilmadan va moddalarning suyuqlanish haroratini o'lchash uchun PTP TU 25-11-1144 qurilmasidan foydalanildi. Yupqa qatlamli xromatografiya (YuQX) uchun Silufol (Chexiya) plastinkalaridan foydalanildi.

Sintez qilingan moddalarning tuzilishini IQ spektrlari - Elmer System 2000 FT-IR (Yaponiya) spektrometrida tadqiq qilindi.

Yantar kislotaning glutamin bilan yangi hosilasi sintezi

Yantar kislotaning glutamin bilan yangi hosilasini sintez qilish uchun, 100 ml hajmli tubi yumaloq tubli kolbaga yantar kislotasi va glutaminning 1:1 nisbatdagi ekvivalent nisbatdagi suvli eritmaları tayyorlanib, 60-65 °C haroratda 2 soat davomida magnitli aralashtirgich yordamida aralashtirib turilgan holda qizdirildi. Reaksiyaning borishi YuQX usulida Sulifol», (Chexiya) plastinkalarida dastlabki moddalarga nisbatan nazorat qilindi. Reaksiya tugagandan so'ng eritma tarkibidagi reaksiyaga kirishmagan moddalarni chiqarib yuborish uchun cho'kmani etil spirit va dietil efir bilan yuvdik. So'ngra liofil quritgichda quritildi. Hosil bo'lgan mahsulot- rangsiz kristal modda. Massasi 1,99 g, unumi 68% ni tashkil etdi. $T_{suyuk} = 146-148$ °C; $R_f = 0.2$.

Olingan natijalar taxlili




Glutamin (Glu) yantar kislotasi bilan hosilasining ayrim fizik-kimyoviy xususiyatlari o'rganildi va olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval


Sintez qilingan moddaning fizik-kimyoviy konstantalari

Modda nomi	Брутто формуласи	Molekulyar massasi g/mol	T_{suyug} , °C	R_f	Eruvchanligi
Glutamin (Glu)	C ₅ H ₁₀ N ₂ O ₃	146,14	-	-	suv
Yantar kislota	C ₄ H ₆ O ₄	118.09	185-190 °C	-	Suv, etil spirit, dietil efir, va ацетон
Yantar kislotaning (Glu) bilan xosilasi	C ₂₀ H ₁₄ N ₂ O ₅	334,36	146-148 °C	0.2	suv

Синтез қилган янтар кислотасининг glutamin билан янги hosilasining kimyoviy tuzilishi IQ-spektroskopik usulda tadqiq qilindi.



1-rasm. Glutaminning IQ-spektri



2-rasm: Glutaminning yantar kislotasi bilan hosilasining IQ spektri

2-jadval

№	Moddalar	IQ spektr (ν , cm^{-1})
1.	Glutamin kislotasi	$\nu(\text{NH}_2, \text{amid})=3547, 3428, \nu(\text{OH})=3533, \nu(\text{NH}_2, \text{amino})=3427, 3340, \nu(\text{CH}_2)=2950, 2901, 2897, 2867, \nu(\text{CH})=2871, \nu(\text{C=O})=1832, 1761, \delta(\text{NH}_2, \text{amid})=1639, \delta(\text{NH}_2, \text{amino})=1607, \delta(\text{CH}_2)=1470, 1456, \nu(\text{C-N})=1403, 1097, \delta(\text{OH})=1397, \nu(\text{C-C})=1068, 1038, 999, 899, \delta(\text{C=O})=736, 601$
2.	Yantar kislotasi	$\nu(\text{NH}_2)=3401, 3261, \nu(\text{OH})=3790, 2635, \nu(\text{CH}_2)=3045, \nu(\text{CH})=2253, \nu(\text{COO}^-)=1703, 1419, \delta(\text{NH}_2)=1663, \delta(\text{CH}_2)=1309, \nu(\text{CH}_3)=1191, \delta(\text{OH})=909, \delta(\text{COO}^-)=800, \delta(\text{C-OH})=624$

2-rasmda keltirilgan Glutaminning yantar kislotasi bilan yangi hosilasining IQ-spektridagi asosiy tebranish chastotalarining o'zgarishlarini dastlabki moddalarning spektr ma'lumotlariga taqqoslab, yangi modda hosil bo'lishini tahlil qilish mumkin. Jumladan glutamin molekulasidagi OH guruhlarining valent tebranish chastotalari 3418 cm^{-1} sohada kuzatilgan, CH_3 , CH_2 guruhlarining valent tebranish chastotalari esa 2921 cm^{-1} sohada namoyon bo'lgan, 1708 cm^{-1} da Glutamin molekulasidagi karboksil guruhlarining karbonil qismiga tegishli valent tebranish chastotalari kuzatilgan. Glutamin molekulasining aglikon qismidagi C-11 da joylashgan karbonil guruhining valent tebranish chastotalari 1610 cm^{-1} sohada intensiv holatda namoyon bo'lgan. $1439, 1379, 1213 \text{ cm}^{-1}$ larda CH_3 , CH_2 , CH guruhlarining deformatsion tebranish chastotalari hosil bo'ladi. 1167 cm^{-1} sohada molekuladagi C-O-C hamda C-

OH bog'larining deformatsion tebranish chastotalari kuzatilgan, 975 cm^{-1} da $(=\text{CH})$ guruhining deformatsion tebranish chastotalari namoyon bo'lgan. IQ spektri tahlil qilinganda 1719 cm^{-1} da (C=O) guruhining deformatsion tebranish chastotalari kichik chastotali maydonga siljishi kuzatilgan, bu o'z navbatida ularning bog' hosil qilishda qatnashishini ko'rsatadi.

Xulosa. Olingan natijalar va ularning taxlilidan xulosa qilinishicha, yantar kislotasining glutamin bilan yangi hosilasi sintez qilinib, sintez qilingan yangi hosilaning ayrim fizik-kimyoviy xossalari va xromatografik o'rganish natijasida $R_f=0.2$ ekanligi aniqlandi. Sintez qilingan yangi moddaning tuzilishi IQ-spektroskopiya usulida tadqiq qilinib tasdiqlandi. Sintez qilingan yangi moddaning biologik faolligi o'rganilib, qishloq xo'jaligi uchun stimulyatorlik xususiyatlari tadqiq qilinmoqda.

АДАБИЁТЛАР:

- Kim Y., Cocolas G. Glutamic Acid Analogs. The Synthesis of 3-Alkylglutamic Acids and 4-Alkylpyroglutamic Acids // J. Med. Chem. 2005. Vol. 8 № 4. P. 509–513.
- Кобзарева В. Н., Дейко Л. И., Васильева О. С., Берестовицкая В. М., Беркова Г. А. Новый метод синтеза 3-фенилглутаминовой кислоты // ЖОХ. 2007. Т. 33. Вып. 8. С. 1180–1181.
- Н.Н.Власова, Л.П.Головкова Адсорбция глутаминовой кислоты на поверхности нанокристаллического диоксида церия // Ж.Поверхность. 2015. Вып. 7(22). С. 77–84.
- Балуева Г.А. Кислота из янтаря // Ж.Химия и Жизнь.-1983. -№11. -С.58–61.
- S.A.Majidov, Sh.J. Maxamadiyev, U.K.Abduraxmanova Indigoning umumiy xossalari tahlili va ikki asosli karbon kislotalari bilan ta'siri// Kompozitsion Materiallar. -2023 № 01. B.29-34.

Абдурахманова Угилай Коххоровна
Юсупов Бобиржон Алиевич

ГулДУ Кимё кафедраси мудири, б.ф.д., профессор
ГулДУ Кимё кафедраси ўқитувчиси

ПОЛИСАХАРИДЛАРДАН ЮҚОРИ АЛМАШИНИШ ВА ПОЛИМЕРЛАНИШ ДАРАЖАЛАРИГА ЭГА КАРБОКСИМЕТИЛЛИ КОМПОЗИЦИЯЛАРИНИ СИНТЕЗИ

М.А. Сиддиков, М.М. Муродов, А.С. Сидиков

Саноатнинг турли тармоқларига олдиндан белгиланган ҳоссага эга бўлган гидрофил коллоид системаларга талаб ортиб бормоқда. Шу сабабли барқарорловчи, структура ҳосил қилувчи, пластификациялаш, клейлаш ва бошқа ҳоссаларига кўра рақобатбардош сунъий ҳосилаларни яратиш долзарб вазифалардан бири бўлиб қолмоқда. Сувда эрийдиган табиий ва синтетик полимер моддалар халқ хўжалигининг турли соҳаларида кенг қўлланилмоқда, хусусан, газ ва нефт ишида, нефт-кимёвий, тўқимачилик, озиқ-овқат, лок-бўёқ ва қоғаз ишлаб чиқариш саноатларида.

Нефт газ саноатида бурғулаш қоришмалар таркибидаги стабилловчи реагентларнинг сифатига катта талб қўйилади. Бурғулаш даврида ер ости сувларини бурғуланаётган қудукга зарари етмаслиги, жараён даврида турли қаттиқ пластларни учраши каби ножўя унсурларни юзага келиши кўшимча энергияни ҳамда бурғулаш қоришмалари таркибидаги реагентлар сарфини ва барқарорлигини камайишига сабаб бўлади.

Амалда целлюлозанинг оддий эфирлари, айниқса, карбоксиметил-целлюлозанинг натрийли тузи (Na-KMЦ) кўп ишлатилмоқда. Саноат миқёсида кўп ишлатилиши уни суспензияларни ва тўғри эмульсияларни барқарорлаш, дисперс системаларда иккиламчи структураларни ҳосил қилиши ҳамда сувда эрийдиган плёнка ҳосил қилиш каби хусусиятларига асосланган.

Ишлатилиш соҳаларига кўра Na-KMЦга маълум талаблар қўйилади. Уни ишлатилиш соҳасини аниқловчи асосий параметрлар маҳсулотнинг полимерланиш ва алмашиниш даражаларидир. Na-KMЦнинг полимерланиш даражаси олинган целлюлозанинг полимерланиш даражасига боғлиқ бўлса, маҳсулотнинг алмашиниш даражаси синтез технологик жараёнининг параметрларига боғлиқ бўлади.

Полисахридларнинг вакили бўлган крахмални ҳам карбоксиметилли ҳосиласи натрий карбоксиметилкрахмал (Na-KМК) мукамал ўрганилган. Лекин целлюлоза ва крахмал композицияларини карбоксиметилли ҳосилаларини синтез қилиш ва уларни хусусиятлари амалда ўганилмаган.

Тадқиқотнинг мақсади саноат корхоналарининг целлюлоза сақловчи иккиламчи маҳсулотларидан олинган целлюлоза ва крахмал асосида техник карбоксиметилли

композицияларни синтез қилиш ҳамда уларни нефт газ қудукларини бурғулаш қоришмаларини стабилловчи реагент сифатида қўллаш ҳисобланади. Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда термик барқарор ва сувни сақлаш кўрсаткичи ижобий бўлган полисахаридларнинг карбоксиметилли композицияларини синтез қилишнинг мақбул параметрларини аниқлашга бағишланган.

Тенг миқдордаги Na-KMЦ + Na-KМК композициясини синтез қилишда фойдаланиладиган полисахаридлар, ишқорнинг сувдаги эритмаси ва моноклорсирка кислотасининг натрийли тузи (Na-MХСК) мақбул нисбатларини аниқлаш мақсадида ҳамда уларни асосий маҳсулотнинг унумига, карбоксиметил группасининг алмашиниш даражасига (АД), полимерланиш даражасига (ПД) ва маҳсулотнинг сувда эрувчанлигига таъсири ўрганилди.

Тажриба қисми. Натрий гидроксидининг умумий сарфи қуйидаги моль нисбатлардан ҳисоблаб топилди – целлюлоза: NaOH:H₂O = 1:2:18. Моноклорнатрийацетат сарфи целлюлоза:Na-MХСК=1:1,8 нисбатда олинди. Реагентлар аралашмасини 1/2 дан 1/6 нисбатларгача фракциялаб (бўлиб-бўлиб) қўшиб борилди.

Карбоксиметиллаш қуйидагича амлга оширилди. Z шаклдаги аралаштигичли идишга пахта целлюлозаси ва крахмал тенг нисбатларда солинди (идишнинг 0,6 қисмигача). Ҳисобланган нисбатда натрий гидроксид эритмаси қуйилди. Реагентларни қўшишнинг ҳар бир босқичида натрий гидроксид эритмаси ва Na-MХСК бир хил ҳажмларда қўшиб борилди, яъни уч босқичда синтезни амалга оширилса, ҳар босқичда реагентларни 1/3 қисмлари қўшиб борилди. Мерсерлаш жараёнларини 15-22⁰С да 30 минут давомида олиб борилди (Аралаштириш тезлиги минутига 200 мартани ташкил этди). Сўнгра ҳисобланган миқдорда Na-MХСК қўшиб 20 минут давомида карбоксиметиллаш олиб борилди. Реагентларни қўшиш босқичлари оширилса, ҳар бир босқичда қўшиладиган реагентларнинг миқдорлари ҳам шунга мос равишда камайтиради, карбоксиметиллаш вақти ҳар босқичда 10 минутгача камайтиради. Карбоксиметиллашни 65-80⁰С да етилириш идишида тугалланади.

Олинган натижаларни таҳлили. Ананавий усулда ва босқичма-босқич карбоксиметиллаб олинган полисахаридларнинг

Na-карбоксиметилли композициясининг намуналарининг тавсифлари 1 ва 2-жадвалларда келтирилган.

Реагентларни (натрий гидроксиди ва Na-MXCK) реакцион аралашмага босқичма-босқич киритилиши крабоксиметил гурухларини макромолекулада текис тақсимланишига ва Na-MXCK ни қўшимча гидролизланишини минимал даражагача камайишига олиб келади ҳамда целлюлозанинг молекуляруст структурасини ғавоклашишига, ўз навбатида реагентни диффузияланиш даражасини кескин ортишига олиб келади. Натижада маҳсулотни карбоксиметилланиш даражасини юқори қийматга эга бўлишига сабаб бўлади.

1-жадвалдан кўринадики, карбоксиметили композицияларини синтези жараёнида реагентларни қўшиш босқичлари сони ортиши карбоксиметиллаш реакциясига ижобий таъсир этади. Буни маҳсулотнинг алмашиниш даражасини ва эручанлик кўрсаткичини ортишидан кўриш мумкин.

Келтирилган маълумотлардан хулоса қилиш мумкинки, Na-карбоксиметил композицияси синтезида карбоксиметиллашни бир неча босқичда амалга ошириш Na-MXCKни гидролизланишини камайишига, алмашиниш даражасини ва сувда эручанлигини ортишига олиб келади, бу эса маҳсулотни сифатини сескин яхшиланишига сабаб бўлади.

Жадвал 1

Полисахаридларнинг карбоксиметили композициясининг сифат кўрсаткичларини карбоксиметиллаш босқичларига боғлиқлиги

Босқичлар сони		Реагентларни қўшиш нисбатлари		Асосий маҳсулот миқдори, %	Алмашиниш даражаси	Эручанлик %
Мерсерлаш	Эфирлаш	NaOH	Na-MXCK			
1	1	1	1	49,0	85	97,3
2	2	1/2	1/2	51,3	90	97,7
3	3	1/3	1/3	51,9	93	98,0
4	4	1/4	1/4	51,0	97	98,3
5	5	1/5	1/5	50,5	103	98,6
6	6	1/6	1/6	49,6	107	98,8

Синтез жараёнида олинган маҳсулотнинг деструкцияланишини камайитириш мақсадида Na-карбоксиметил композицияси синтези жараёнида қўшилган айрим антиоксидантларни маҳсулотнинг полимерланиш даражасига, эритманинг

динамик қовушқоқлигига таъсири ўрганилди. Антиоксидант сифатида бутилгидрокситолуол ва гидрохинондан фойдаланилди.

Синтез қилинган Na-карбоксиметил композицияларнинг сифат кўрсаткичлари 2-жадвалда келтирилган.

2- жадвал

Синтез қилинган Na-карбоксиметил композициялари намуналарининг сифат кўрсаткичлари (Полисахаридлар нисбати 1:1) ($\gamma=87$)

№	Ингибиторларнинг масса улуши, %	1% ли эритманинг 25 ⁰ С даги динамик қовушқоқлиги, мПа·с	ПД
Бутилгидрокситолуол			
1	-	742	722
2	0,3	920	828
3	0,4	1081	936
4	0,5	1120	940
Гидрохинон			
1	-	712	748
2	0,3	823	715
3	0,4	918	859
4	0,5	895	860

2-жадвалдан кўринадики, Na-карбоксиметил композицияларини синтези жараёнида антиоксидантларни қўшиш маҳсулотнинг полимерланиш даражасини ортишига, натижада эритмасининг динамик

қовушқоқликни ҳам юқори бўлишига олиб келади.

Ингибиторларнинг мақдорини 0,3 % дан 0,5 % гача ортиши карбоксиметил композицияларни ПД қийматини ортишига

олиб келади. Ингибиторланинг мақбул концентрацияси 0,5%ни ташкил этади.

Хулоса қилиш мумкинки, полисахаридлардан юкори молекуляр массага ва алмашиниш даражасига эга бўлган На-карбоксиметил композицияларини синтез қилишнинг мақбул параметрлари ишлаб чиқилди.

На-карбоксиметил композициялари синтезида антиоксидант сифатида бутилгидрокситолуол ёки гидрохинондан

фойдаланиш маҳсулотнинг юкори полимерланиш даражасига ва динамик қовушқовликка эга бўлишига сабаб бўлади, бу эса унинг бурғулаш эритмасини сувни сақлаш кўрсаткичи термобарқарорлигини сақланиб қолишига олиб келади. Шунинг учун синтез қилинган

На-карбоксиметил композицияларини нефт ва газ қудукларини ернинг чуқур қатламларида бурғулашда юкори самарада фойдаланиш имкониятини яратади.

3-жадвал

Ҳозирда ишлаб чиқаришда мавжуд технология асосида, ҳамда “SISTEM” усулида олинган ПАЦ намуналарининг сифат кўрсаткичлари

ПАЦ намуна-лари	ПАЦ нинг кўрсаткичлари						
	Нам-лик микдори %	Карбоксил грухлари билан ўрин алмашиш даражаси	Асосий модда микдори, %	2% ли сувли эритманинг динамик қовушқоқлиги, мПас	Сувда эрувчан-лиги, %	pH	ПД
Терак дарахти целлюлозаси асосидаги ПАЦ							
1*	12	91	51	105,4	98,0	12	450
2*	7	105	62	135,4	98,8	11	800
Пахта целлюлозаси асосидаги ПАЦ							
1*	11	88	51	118,2	98,4	11	750
2*	9	105	63	215,8	98,9	10	1250

1*-Ҳозирда ишлаб чиқаришда мавжуд технология асосида олинган ПАЦ нинг физик-кимёвий кўрсаткичлари

2*- “SISTEM” усулида олинган ПАЦ нинг физик-кимёвий кўрсаткичлари.

3-жадвалдан кўриш мумкинки, ҳозирда ишлаб чиқаришда мавжуд технология асосида, ҳамда “SISTEM” усулида олинган ПАЦ намуналарининг физик-кимёвий кўрсаткичлари орасида сезирарли даражада фарқ мавжуд. Масалан, мавжуд технологияда олинган ПАЦ нинг сифат кўрсаткичларидан бири полимерланиш даражасининг паслиги, яъни терак целлюлозаси асосидаги ПАЦ нинг полимерланиш даражаси 450 ни, пахта целлюлозаси асосидаги ПАЦ ники 750 ни ташкил этмоқда. “SISTEM” усулида олинган КМЦ намуналарининг полимерланиш даражаси эса бир мунча юқоридир. Бунга сабаб, юқорида тақидланганидек “SISTEM” усулининг авзалигидадир, яъни жиҳознинг ички конструкциясини

мураккаблаштирилганлиги, ПАЦ олишда хар бир жараёнга мослашишнинг оператив дастурлари мавжудлиги, бунда деструктив ҳолатларнинг кескин камайганлиги, ишлаб чиқариш қувватини юқорилигидир. Бу омиллар таклиф этилаётган технология асосида КМЦ нинг турли соҳалар учун бир нечта маркаларини ишлаб чиқаришга имкон беради.

Бурғулаш қоришмаларини тайёрлаш технологияси учун самарали полимер реагентларни танлаб барқарорликни ошириш мумкин. $3,8\text{г/см}^3$ зичликдаги бурғулаш қоришмаси, қудукларни бурғулаш учун зарур бўлган технологик хусусиятларга эга суюқлик йўқотилишини $3,8\text{см}^3/30$ дақиқага таққослаб ўрганилади.

Тенг нисбатлардаги терак ҳамда пахта целлюлозалари ва турли нисбатлардаги жўхори крахмалнинг композитлари асосида олинган ПАЦ реагентининг харорат татаъсиридаги сувни сақлаш кўрсаткичлари қуйидаги 4-жадвалда келтирилган.

4-жадвал

Тенг нисбатлардаги терак ҳамда пахта целлюлоза композитлари билан крахмалнинг турли нисбатлардаги ПАЦ намуналарининг харорат таъсиридаги сувни сақлаш кўрсаткичлари

№	Целлюлоза ва крахмал нисбатлари	Сувни сақлаш кўрсаткичи, ($3,8\text{см}^3/30\text{дақ.}$)	Ҳарорат, °C (6-намуна учун)	Сувни сақлаш кўрсаткичи, ($3,8\text{см}^3/30\text{дақ.}$)
1	100/0	6,7	60	6,8
2	90/10	4,8	80	6,9

3	80/20	4,2	100	8,9
4	70/30	3,7	120	11,2
5	60/40	3,1	140	12,4
6	50/50	2,6	160	14,7

4-жадвалдан кузатиш мумкинки, олинган ПАЦни бурғулаш аралашмасининг сувни сақлаш кўрсаткичи, яни барқарорловчи хусусияти, композицияда крахмалнинг миқдорига ва синтез қилиш ҳароратига боғлиқ равишда ўзгаради. Яъни, крахмал миқдорини таркибда ошиб бориши реагентнинг сувни сақлаш индексини барқарор ушлаб турилишига

имкон бермоқда. Нисбатлар 90/10 дан 50/50 га қадар ортириб бориши сувни сақлаш кўрсаткичини барқарорлигини таъминлайди. Ҳароратнинг 60 °С дан 80 °С гача ортиши сувни сақлаш кўрсаткичига таъсир кўрсатмайди, ҳароратнинг кейинги ортиши нумуналарнинг сувни сақлаш кўрсаткичини аста ортишига олиб келади.

5-жадвал

Тенг нисбатлардаги терак ҳамда пахта целлюлозалари композитлари асосида ПАЦ реагентининг ҳарорат таъсиридаги сувни сақлаш кўрсаткичлари

№	Нисбатлар	Ҳарорат, °С	Сувни сақлаш кўрсаткичи, 3,8см ³ /30дақ
1	100/0	60	6,7
		80	9,1
		100	12,2
		120	15,8
		140	21,9
		160	29,7

Аксинча 5-жадвалда крахмал таркибсиз реагентнинг 3,8 см³/30 дақиқада ҳарорат ортиши билан қоришманинг сувни сақлаш

кўрсаткичи камайиб боради, яъни барқарорлиги камайиб бориши кузатилади.

6-жадвал

“SISTEM” усулида олинган ПАЦ намунасининг сувни сақлаш кўрсаткичи (3,8см³/30дақ)

Кўрсаткичлар	“SISTEM” усулида олинган ПАЦ намунаси		
	Техник талаблар	Намуна	Таҳлиллар билан тузилган ҳулоса
Мутлақо курук ПАЦнинг лойли эритмасининг сув ёқотилиши, унинг масса улуши 0,75 (асосий модда учун ҳисобланганда) см ³ /30, кўп эмас	4,0	3,8	Мос келади
Сув миқдори, кўп эмас	10	10	Мос келади
Водород кўрсаткичи, рН 1,5% сувли эритмада	6,0-10	9	Мос келади

6-жадвалдан кўринадики, терак ҳамда пахта целлюлоза композитлари билан крахмалнинг турли нисбатлардаги ПАЦ намуналарининг ҳарорат таъсиридаги сув ўтказмаслик кўрсаткичлари техник талабларга мос келади.

Ҳулоса. Полисахаридларни босқичли

карбоксиметиллаб, юқори алмашиниш даражасига ва эрувчанликка эга бўлган Na-KMЦ+Na-KМК композицияларини синтез қилиш ҳамда жараёнларда антиоксидантларни ишлатилиши композицияларнинг полимерланиш ва алмашиниш даражаларини сақланиб қолишга имкон беради.

М.А.Сиддиқов
М.М.Муродов
А.С.Сиддиқов

ЕМ Universities
Тошкент инновацион кимё-технология илмий тадқиқот институти
Тошкент кимё технология институти

ИССЛЕДОВАНИЕ ПО ВЫБОРУ ИОННООБМЕННОЙ СМОЛЫ ДЛЯ ПОЛУЧЕНИЯ РЕНИЯ ИЗ ПРОДУКТИВНЫХ РАСТВОРОВ

А.С. Хасанов, А.Н. Шодиев, А.М. Хужакулов

Введение. Как отмечалось выше, основным источником рения служат сернокислые (или азотно-сернокислые) растворы, получаемые в процессе переработки молибденитовых концентратов, и промывная кислота электрофильтров сернокислотных цехов медеплавильных предприятий.

Кроме того, рений извлекают из маточных растворов после осаждения молибдата кальция (при переработке молибденовых промпродуктов) и из маточных растворов после осаждения тетрамолибдата аммония. Растворы содержат 0,01-0,04 г/л рения и 0,2-2 г/л молибдена.

Сорбция на активированном угле. Из сернокислотных растворов рениевая кислота сорбируется на активированном угле в широком интервале кислотности (от $\text{pH}=2+3$ до концентрации кислоты 30-40 %). Емкость углей низкая -2-4 % (при концентрации рения 0,03-0,06 г/л). Вместе с рениевой кислотой сорбируются молибдат-ионы. Это требует предварительной очистки растворов от молибдена до концентраций, соизмеримых с концентрацией рения. С этой целью либо осаждают молибдат кальция, либо избирательно поглощают молибден слабоосновной смолой, например, типа АН-1 в сернокислой форме при $\text{pH} = 2-5-3$. В этих условиях ионы ReO_4 почти не сорбируются на смоле.

Десорбцию с поверхности угля можно проводить избирательно: вначале десорбируют молибден холодным 1 %-ным раствором соды, а затем рений - нагретым до 90°C 1-3 %-ным раствором соды. Сорбцию на углях обычно применяют для извлечения рения из бедных растворов (0,01-0,05 г/л рения). В этом случае получаемые после десорбции растворы содержат 0,2-1 г/л рения. Чтобы получить более концентрированные растворы, повторяют операцию сорбции на угле или используют более эффективное ионообменное концентрирование. Преимущества угля как сорбента - высокая избирательность в отношении рения; недостаток - малая емкость и потеря активности после 4-6 циклов сорбции - десорбции.

Литературный анализ и методы. В области развития производства редких и драгоценных металлов из рудного сырья цветных металлов, а также извлечения их из отходов и вторичного сырья внесли свой значительный вклад такие зарубежные и

отечественные ученые: Зеликман А.Н., Коршунов Б.Г., Уткин Н.И., Тарасов В.П., Палант А.А., Трошкина И.Д., Чекмараев А.М., Пирматов Э.А., Шарипов Х.Т., Санакулов К.С., Юсупходжаев А.А., Якубов М.М., Хасанов А.С., Хаспулатов В.Ш., Chen T., Меретуков М.А., Dutrizac J., Hoffman J., Cooper W., Набойченко С.С., Степанов В.П., Смирнов М.П., Грейвер Т.Н. и др.

Вместе с тем, существуют проблемы, имеющие важное значение для науки и практики горно-металлургического производства редких металлов, которые связаны с проблемами комплексной переработкой минерального сырья и охраной окружающей среды, в частности, доизвлечением редких и благородных металлов.

Результаты и обсуждение. У слабоосновных анионитов (советские марки АН-2Ф, АН - 21, АН-82 и др.) емкость по рению значительно ниже, чем у сильноосновных, но элюация легко осуществляется растворами аммиака, что существенно упрощает технологию получения перрената аммония.

Ниже в качестве примера приведены варианты технологии извлечения рения и получения перрената аммония из растворов мокрых систем улавливания, содержащих, г/л: Re 0,5-0,7; Mo 7-12; H_2SO_4 120-150.

Вариант 1. Используется слабоосновная смола АН - 21х16 в SO_4^- - или Cl^- - форме. Смола из кислого раствора избирательно сорбирует рений (молибден практически не сорбируется).

Процесс проводится в двух последовательно соединенных колонках с переключением на третью колонку после насыщения смолы в первой.

Вариант 2. Используется сильноосновная смола типа АМ в NO_3^- - или SO_4^- - форме. При сорбции из растворов приведенного выше состава емкость по рению равна 10-15 %, по молибдену - 10 %. Рений и молибден сорбируются совместно. Молибден затем избирательно элюируется 10 %-ным раствором щелочи, затем рений элюируется 4 ы. HNO_3 . Из элюата (~ 10 г/л Re) после выпаривания до концентрации 100-120 г/л кристаллизуется NH_4ReO_4 (при добавлении NH_4NO_3).

Вариантом этой технологии является сорбция на высокоосновной смоле в роданидной форме (емкость по рению 20-23%), молибден сорбируется в малой степени). Рений элюируют 3%-ным раствором NH_4SCN . При этом получают раствор NH_4ReO_4 , и регенерируется

смола. Из раствора кристаллизуют перренат аммония.

Содержание основных элементов в сбросных азотно-серноокислых растворах ниже (г/л):

Re – 0,05, Mo – 0,02, Fe – 4-5, Cu – 2-4,
Zn – 0,055, W – $6 \cdot 10^{-3}$, NO₃ – 25,2, SO₄ – 14,7

Учитывая, что в технологии рения и молибдена в последние годы широко применяют сорбенты фирмы Пьюролайт, нами

были исследованы сорбционные характеристики сорбентов катионита S- 957, анионита А-172. [8-10].

Катионит S-957

Сорбционные характеристики по молибдену ионита S-957 были проведены на маточных растворах сорбции рения и кислых ренийсодержащих растворов до сорбции рения. Химический состав данных растворов приведен ниже (табл.1).

Таблица 1

Химический состав растворов

№	Наименование растворов	Re, мг/л	Mo, г/л	H ₂ SO ₄ , г/л
1	Кислый раствор до сорбции рения	900	5,8	296
2	Маточный раствор после сорбции рения	10	5,8	296

Известно что в составе маточных растворов после сорбции рения Mo присутствует в форме катионов (MoO₂²⁺) в составе нейтральных молекул молибденилсульфата (MoO₂SO₄) и анионов (комплексы типа MoO₂((SO₄)_n)⁻⁽²ⁿ⁻²⁾).

При уменьшении концентрации серной кислоты доля катионной формы увеличивается.

Для определения оптимальных концентраций H₂SO₄, наиболее

благоприятной для сорбции Mo на S- 957, были подготовлены растворы. Растворы готовились с применением реактивов- NaOH, Na₂CO₃ и просто разбавлением водой.

Катионит S- 957 также был подготовлен к процессу сорбции. Для перевода S- 957 в Na - форму навеску гидратированного сорбента весом 1 г. замачивали в 1н растворе NaOH; для перевода в H⁺ - форму замачивали в 2н растворе HCl.

Таблица 2

Результаты сорбции Mo на S- 957 в статических условиях (длительность сорбции 5 часов, Mo- 5,8 г/л, Re- 10 мг/л, H₂SO₄- 296 г/л, H₂SO₄ разбав.- 192 г/л)

№	Наименование продукта	Mo, г/л	Re, мг/л	COE, мг/г сорбента	ε, %	Примеч
1	Маточник после сорбции (S- 957 в H ⁺ - форме)	3,7	2	105	36,2	
2	Маточник после сорбции (S- 957 в Na ⁺ -форме)	3,8	6	100	34,5	
3	Маточник после сорбции (исх. форма)	3,1	7	135	46,5	
4	Маточник после сорбции (S- 957 в H ⁺ - форме)	1,6	5	65	44,8	Разб.1:1
5	Маточник после сорбции (S- 957 в Na ⁺ - форме)	1,5	4	70	48,3	Разб.1:1
6	Маточник после сорбции (исх. форма)	1,2	4	85	58,6	Разб. 1:1

Для определения COE (статическая обменная ёмкость) S- 957 по Mo, работающего в Na⁺- форме, H⁺- форме и в исходной форме, сорбент залили маточным раствором после сорбции рения и тем же маточником, разбавленным водой в соотношении 1:1 в объеме по 50 мл. После проведения сорбции в статических условиях в течении 5 часов, были получены следующие результаты (табл.2). Из данных таблицы 2 видно, что положительные результаты дала сорбция с применением S-957, не переведенного в Na⁺- форму или H⁺-форму.

На основании проведенных исследований можно сделать следующие выводы:

– Катионит S- 957 сорбирует Mo только в катионной форме;

– Нейтрализация реагентами кислого маточника сорбции рения с целью повышения катионной доли Mo положительных результатов не дает;

– Многократное разбавление маточника водой также не оправдало себя, поскольку в этом случае образуется большой объем рабочего раствора с низким содержанием Mo, что нецелесообразно;

– Для S- 957 характерна низкая механическая прочность. Это будет отрицательно сказываться на процессе

сорбции, если данный сорбент будет применен в гидрометаллургии Мо;

– Несмотря на то, что S- 957 является катионитом, он сорбирует рений (в растворах ЦПРМ рений присутствует в виде одновалентного тетраэдрического аниона рениевой кислоты). Степень извлечения рения сорбентом S- 957 составляет 11-13%. На основании этого можно полагать, что применение S- 957 до сорбции рения в целях уменьшения содержания Мо, положительных результатов не даст.

Анионит А-172

Слабоосновной анионит А-172 предназначен для сорбции рения. В качестве

функциональных групп содержит комплексные амины. Полимерное строение - полистирол сверхсшитый дивинилбензолом. Структура - гелевая.

Гранулы А-172 представляют собой агрегаты полупрозрачного желтого цвета с специфическим запахом. Насыпной вес- 0,642 г/см³. Удельный вес- 1,07 г/мл. Диапазон pH 0-14.

Для определения изотермы сорбции были взяты навески анионита А-172 объемами 5; 10; 15; 25; 50 мл. В колбы с сорбентом залили ренийсодержащий раствор в объеме по 100 мл. Длительность сорбции - 24 часа. Химический состав исходного раствора приведен в табл.3.

Таблица 3

Химический состав исходного ренийсодержащего раствора

№	Наименование раствора	Re, мг/л	Mo, г/л	H ₂ SO ₄ , г/л
1	Ренийсодержащий раствор	936	7,5	298

После проведения сорбции в статических условиях были получены следующие результаты:

Таблица 4

Результаты сорбции рения в статических условиях на смоле А-172

№	Наименование раствора	Re _{ост.} , мг/л	Mo _{ост.} , г/л	COE _{Re} , г Re/ лс	COE _{Mo} , г Mo/л,	E _{Re} , %	E _{Mo} , %
1	Маточник сорбции (А-172 5 мл)	43	6,9	17,860	12	95,4	8
2	Маточник сорбции (А-172 10мл)	8	6,1	9,280	14	99,1	18,6
3	Маточник сорбции (А-172 15 мл)	2	5,4	6,226	14	99,7	28
4	Маточник сорбции (А 172 25 мл)	<1	3,8	3,740	14,8	99,8	49,3
5	Маточник сорбции (А-172 50 мл)	<1	4,8	1,870	5,4	99,9	28

Отрицательной стороной при сорбции рения из раствора А-172 является то, что этот сорбент сорбирует молибден до определенных концентраций. Согласно данным таблицы 4, молибден сорбируется А-172 в пределах ~ 49%. Видимо, молибден сорбируется А-172 до определенной степени, а далее наблюдается относительно постоянная концентрация молибдена в маточниках сорбции (рис.1).




Рис.1. Изотерма сорбции рения на анионите А-172

Закключение. Эксперименты по сорбционному извлечению молибдена и рения из растворов проведены в каскаде, состоящем из четырех лабораторных сорбционных колон с объемом 15,0 литров каждой колонны. Сорбция молибдена из очищенных растворов от меди, кремния, фосфора и мышьяка отработана на смоле «Purolite» А-100 (Мо), а рения на смоле «Purolite» А-170, в статических и динамических режимах. В совокупности из полученных результатов лабораторных экспериментов и проведенных опытно промышленных испытаний локальных технологических процессов впервые разработана новая технология комплексной переработки сбросных отходов и растворов гидрометаллургического производства перената аммония в НПО АО «Алмалыкский ГМК».

ЛИТЕРАТУРА:

1. Шарипов Х.Т., Борбат В.Ф., Даминова Ш.Ш., Кадилова З.Ч. Химия и технология платиновых металлов. Тошкент «Университет» 2018г. С. 3-5, 14-17, 14-28, 35-40.

2. Авдохин, В.М. Основы обогащения полезных ископаемых: Учебник для вызов: в 2-х т.: Т. 1. – Обогащительные процессы / В.М. Авдохин. – М.; Издательство Московского государственного горного университета, 2006. – 417 с.
3. Шегай А.А., Шарипов Х.Т., Шегай М.А. Технология молибдена и материалов на его основе. Ташкент «Фан ва технология».–2010. –С35-54.
4. Шарипов Х.Т., Асадов И.С., Шегай А.А., Шегай М.А., Шегай Р.А. Производство вольфрама и молибдена обработка давлением материалов.
5. Авдохин, В.М. Основы обогащения полезных ископаемых: Учебник для вызов: в 2-х т.: Т. 2. – Технологии обогащения полезных ископаемых– М.; Издательство Московского государственного горного университета, 2006. – 310 с.
6. Boymurodov N.A. The current state of the study of geomechanical conditions of rock masses with an increase in the depth of open-pit mining // Universum: технические науки: электрон. научн. журн. 2022. 11(104). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/14558>
7. Пирматов Э.А., Шодиев А.Н., Боймуродов Н.А. Изучение растворимых форм вольфрама и условий кристаллизации шеелита и вольфрамита // Universum: технические науки: электрон. научн. журн. 2023. 11(116). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/16240>
8. Палант А.А., Трошкина И.Д., Чекмараев А.М. «Металлургия РЕНИЯ» М: Наука, 2007г. С.119-131 и 175-189.

Ключевые слова: Полезное ископаемое, раствор, кек, сорбция, обогащение, металлургическая отрасль, техногенные отложения, железа, медь, молибден, переработка.

В данной статье в мировой практике существует несколько технологий переработки отходов, но они не носят комплексного характера и состоят из исследования технологий, направленных на разделение отдельных компонентов. Исходным сырьем технологии являются отходы молибденового производства после сорбции эффективных растворов, образующихся при промывке среднего продукта молибдена (ППМ) аммиаком (содой).

Keywords: Mineral, solution, cake, sorption, enrichment, metallurgical industry, technogenic deposits, iron, copper, molybdenum, processing.

In this article, there are several waste processing technologies in world practice, but they are not comprehensive in nature and consist of the study of technologies aimed at separating individual components. The initial raw materials of the technology are waste from molybdenum production after the sorption of effective solutions formed when washing the average molybdenum product (MPP) with ammonia (soda).

Хасанов Абдирашид Солиевич

Доктор технических наук, проф. Заместитель главного инженера по научной работе ОАО «АГМК», Узбекистан, Алмалык

Шодиев Аббос Неймат угли

Доктор технических наук, проф. кафедра «Горное дело» Каршинского инженерно-экономического института, Узбекистан, Карши

Хужакулов Амиржон Муродович

Доцент кафедра «Горное дело» Каршинского инженерно-экономического института, Узбекистан, Карши

СИНТЕЗ И ПОЛУЧЕНИЕ ЭМУЛЬГАТОРОВ НА ОСНОВЕ ПРОДУКТОВ ДИСТИЛЛЯЦИИ ХЛОПКОВОГО МАСЛА СОАПСТОКА И АМИНОСПИРТОВ

Х.Ю. Рахимов, З.Т. Карабаева, Н.У. Батирова, Н.А. Ахмедова, С.А. Агзамова

Введение. Эмульсионные буровые растворы представляют собой системы, содержащие воду, глину, утяжелитель, добавки нефти или другой углеводородный компонент (дизельное топливо, соляровое масло, смад и т.д.), обработанный химическими реагентами. Для лучшего диспергирования нефтяного компонента к ним добавляют специальные эмульгаторы. Эмульсионные глинистые растворы были созданы в период освоения буровиками роторного способа бурения

скважин, когда сырую нефть добавляли в буровой раствор не с целью получения эмульсионного раствора, а как профилактический компонент для предупреждения и освобождения бурильных и утяжеленных труб от прихвата [1].

Эмульсионные буровые растворы имеют ряд преимуществ по сравнению с обычными глинистыми растворами на водной основе. Эти преимущества состоят в следующем [2]:

1) улучшаются качество бурового раствора и его свойства (снижается водоотдача, толщина глинистой корки, повышается коагуляционная и кинетическая устойчивость к действию электролитов, упрочняется структура раствора в статических и повышается текучесть в динамических условиях промывки скважины);

2) улучшается работа забойных двигателей, буровых долот, повышается буримость горных пород, снижаются затраты времени на осложнения и аварийность с бурильным инструментом, а также силы сопротивлений крутящему моменту на долоте (на 40-60%);

3) уменьшаются гидравлические сопротивления в трубах и затрубном пространстве, облегчается работа буровых насосов, снижаются трение и прилипание бурильного инструмента к стенкам скважины;

4) повышаются технико-экономические показатели бурения, механическая скорость бурения и проходка на долото;

5) улучшаются условия вскрытия, опробования и освоения пластов, содержащих нефть и газ.

В качестве эмульгаторов, вводимых в буровой раствор для повышения устойчивости эмульсий, используют различные анионогенные ПАВ, получаемые из жиров, отходов хлопковых и других масел.

В связи с этим на сегодняшний день востребованным является разработка отечественных высокоэффективных эмульгирующих материалов на основе местного сырья и отходов производств.

Результаты исследований и их анализ.

Нами для синтеза эмульгаторов нового типа использованы остатки вакуумной перегонки

соапстока и аминспирты. Существующая технологическая схема переработки хлопковых семян в предприятиях масложировой промышленности предусматривает интенсивную влаготепловую обработку мятки перед выделением масла для и активации токсического действия соапстока и его спутников (белковые вещества, аминокислоты, сахара, фосфотиды и др.). В результате этого в производстве хлопкового масла из 1 т хлопка остается 2 кг кубового остатка – соапсток. Частично этот отход в настоящее время используется для получения мыла, крепителя и тд. Если учесть условие, что Узбекистан дает в год 4 млн. т. хлопка, то из этого количества в год получают 8 тыс. т. гудрона.

Поэтому нам представлялась перспективной, организационная работа по получению эмульгаторов на основе соапстока, разработка лабораторной методики и технологической схемы их получения.

Соапсток – представляет собой черно-коричневую, густую, вязкую и липкую массу, с удельным весом 0,90-0,91 г/см³, влажностью не выше 0,3%, содержит высокомолекулярные полимеризованные жирные кислоты (60%), а также получаемую при пирогенетическом разложении соапстока в процессе его вакуумной разгонки. Соапсток растворяется в органических растворителях, бензине, дизельном топливе, нефти и спиртах [3].

Химический состав соапстока приведен в таблице 1.

